

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**BIOTEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH VA MAMLAKATNING
BIOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR
TO‘G‘RISIDA**

Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, ushbu sohalarda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta’minlash, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani ilg‘or biotexnologiyalar asosida rivojlantirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid [davlat dasturida](#) belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

2020 — 2024-yillarda biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi [1-ilovaga](#) muvofiq;

Biotexnologiyalar sohasida 2020 — 2024-yillarda bajariladigan ustuvor ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish dasturi [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Innovatsion rivojlanish vazirligi (I.Y. Abduraxmonov) Fanlar akademiyasi (B.S. Yuldashev), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I.U. Madjidov), Sog‘liqni saqlash vazirligi (A.M. Xadjibayev) hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda 2021 — 2024-yillarda biotexnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlarini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlarini Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashi tomonidan tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

3. Vazirlar Mahkamasi huzurida Biologik xavfsizlik kengashi (keyingi o‘rinlarda — Kengash) tashkil etilsin va quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilansin:

mamlakatning biologik xavfsizligini ta’minlash sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini tashkil qilish;

xavfli biologik omillar ta’siridan aholini himoya qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xavf-xatarlarning oldini olish, biologik xavflarni monitoring qilish tizimini yaratish va rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar va takliflarni tayyorlash, ekspert baholash hamda ko‘rib chiqish;

mamlakatning biologik xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni amalda ro‘yobga chiqarish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

vazirlik, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakat biologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha maqsadli vazifalarni bajarishdagi o'zaro hamkorligini ta'minlash;

Bakteriologik (biologik) va toksik qurol-yarog'larni ishlab chiqish, tayyorlash va to'plashni man etish hamda ularni tugatish to'g'risidagi Konvensiya qoidalarining amalga oshirilishini ta'minlash;

muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hamda mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish davomida yuzaga keladigan dolzarb masalalar hamda muammolarni, shu jumladan omma o'rtasida muhokama qilish.

4. Belgilab qo'yilsinki:

Kengash Vazirlar Mahkamasi huzuridagi maslahat organi hisoblanadi va mamlakatning biologik xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishda davlat organlari, ilmiy, nodavlat notijorat va boshqa tashkilotlarning o'zaro hamkorligini ta'minlash maqsadida tashkil etiladi;

Kengash o'z faoliyatini majlislar shaklida yuritadi. Kengash majlislari zaruratga ko'ra, lekin har yarim yilda kamida bir marta o'tkaziladi.

5. Quyidagilar:

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biologik xavfsizlik kengashining tarkibi [3-ilovaga](#) muvofiq;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biologik xavfsizlik kengashi to'g'risidagi nizom [4-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

6. Toshkent vaktsina va zardoblar ilmiy-tadqiqot institutining (keyingi o'rinlarda — Institut) respublikada farmatsevtika biotexnologiyalari va vaktsina-zardob ishini rivojlantirish, mahalliy immunobiologik preparatlarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyati qo'llab-quvvatlansin va uning ushbu yo'nalishdagi asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

immunobiologik preparatlar (vaktsinalar, zardoblar, test-dagnostikumlar va boshqalar) bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish hamda ularni amaliyotga joriy etish;

mamlakatning biologik xavfsizligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ilmiy-texnik va uslubiy jihatdan ta'minlash;

vaktsina-zardob ishi bo'yicha infeksiya kasalliklariga qarshi profilaktika, diagnostika, dori vositalari va preparatlarini yaratish, ularning ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish;

ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida biotexnologiya, immunologiya va mikrobiologiya sohasidagi ilmiy loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish.

7. Quyidagilar:

Toshkent vaktsina va zardoblar ilmiy-tadqiqot institutining faoliyatini takomillashtirish dasturi **5-ilovaga** muvofiq;

Toshkent vaktsina va zardoblar ilmiy-tadqiqot institutining tuzilmasi **6-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

8. Institut faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida:

a) Sog'liqni saqlash vazirligi (A.M. Xadjibayev):

ikki oy muddatda Institutning ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi va 2025-yilgacha maqsadli ko'rsatkichlarni Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi tomonidan tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

Innovatsion rivojlanish vazirligi (Sh.U. Turdiqulova), Fanlar akademiyasi (B.S. Yuldashev) bilan birgalikda Institutni 2021-yil 1-aprelga qadar yuqori malakali ilmiy xodim va mutaxassislar bilan to'ldirish choralarini ko'rsin;

Institut faoliyatini yo'lga qo'yish samaradorligi yuzasidan 2021-yil 1-iyul va 2022-yil 1-yanvarda Vazirlar Mahkamasiga axborot berilsin;

b) Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) (S.X. Kariyev) Institutni zamonaviy laboratoriya uskunalari va jihozlari, orgtexnika, kompyuter hamda boshqa moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash choralarini ko'rsin;

v) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (S.X. Bekenov), Toshkent shahar hokimligi (J.A. Artixodjayev), Agentlik (S.X. Kariyev), Fanlar akademiyasi (B.S. Yuldashev) hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi (Sh.U. Turdiqulova) ikki oy muddatda Institutni bino va inshootlar bilan ta'minlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin;

g) Vazirlar Mahkamasi (B.A. Musayev, O.M. Umarov) Institut faoliyatining samarali yo'lga qo'yilishini muvofiqlashtirsin.

9. Belgilansinki:

2021-yil 1-yanvardan boshlab Institut xodimlari mehnatiga haq to'lash, bino va inshootlarini saqlash bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish, shuningdek, joriy xarajatlarini qoplash Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

Institut xodimlariga Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shartlari qo'llaniladi;

Agentlik ishlab chiqarish zaruriyatidan kelib chiqib, Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga yoki outsorsing hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llash orqali Institutning tajriba-ishlab chiqarish bo'linmalarini (shtat birliklarini) to'ldirish huquqiga ega.

10. Agentlik, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining "Tashkent Pharma Park" innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasteri hududida:

"Vaksinalar ishlab chiqarish maydonchasini ishga tushirish" loyihasini (keyingi o'rinlarda — loyiha) amalga oshirish;

Institut huzurida xavfsizlik darajasi bo'yicha "BSL-3" xalqaro standartiga mos keluvchi tajriba-sinov laboratoriyasini (keyingi o'rinlarda — "BSL-3" laboratoriyasi) tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

Belgilab qo'yilsinki:

Agentlik loyiha samarali amalga oshirilishi hamda "BSL-3" laboratoriyasi tashkil etilishi uchun mas'ul bo'lgan ijro etuvchi organ hisoblanadi;

loyihani amalga oshirish va "BSL-3" laboratoriyasini tashkil etishni umumiy muvofiqlashtirish Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Agentlik (S.X. Kariyev) Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Sh.A. Vafayev) bilan birgalikda ikki oy muddatda loyiha amalga oshirish va "BSL-3" laboratoriyasini tashkil etish konsepsiyasi va texnik-iqtisodiy asoslari yetakchi loyiha institutlari va injiniring kompaniyalarini jalb qilgan holda ishlab chiqilishini, shuningdek, ularni moliyalashtirish manbalarining aniqlashtirilishini ta'minlasin.

11. Institut faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilansin:

Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar;

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida o'tkaziladigan tanlovlar natijalariga ko'ra ajratiladigan mablag'lar;

Institut faoliyatiga mos yo'nalishlar bo'yicha xo'jalik shartnomalarini bajarish asosida olingan mablag'lar;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

12. Innovatsion rivojlanish vazirligi va Fanlar akademiyasining:

Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilg'or texnologiyalar markazida (keyingi o'rinlarda — Ilg'or texnologiyalar markazi) Kopenhagen universiteti (Daniya) bilan hamkorlikda zamonaviy fudomiks laboratoriyasini, "hujayra texnologiyalari" ilmiy laboratoriyasini hamda biotexnologiya, biologiya, biotibbiyot, kimyo sohalarida yaratiladigan katta hajmli ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha "Big Data" milliy laboratoriyasini;

Fanlar akademiyasining Mikrobiologiya institutida "fitovirusologiya" ilmiy laboratoriyasini tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

Ushbu biotexnologik laboratoriyalarni tashkil etishni moliyalashtirish manbalari etib Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlariga ajratilgan mablag'lar, xalqaro moliya institutlari, tashkilotlari va donor-mamlakatlarning kredit va grantlari, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar belgilansin.

Innovatsion rivojlanish vazirligi (I.Y. Abduraxmonov) 2021-yil yakuniga qadar ushbu biotexnologik laboratoriyalarning ishga tushirilishini ta'minlasin.

13. Innovatsion rivojlanish vazirligi (I.Y. Abduraxmonov) 2021-2022-yillarda ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlariga ajratilgan mablag'lar hisobidan quyidagilarni moliyalashtirish uchun Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga 20 milliard so'mgacha mablag'lar ajratsin:

biotexnologiyalar sohasida "startap" loyihalarini amalga oshirish;

50 foizgacha birgalikda moliyalashtirish sharti bilan tajriba-sanoat biotexnologik ishlab chiqarishlarni tashkil etish va rivojlantirish;

biotexnologiyalarni rivojlantirish uchun ilmiy va laboratoriya uskunalarini xarid qilish;

sohaga zamonaviy texnologiya, innovatsion g'oya va ishlanmalarni joriy qilish;

yosh mutaxassislarni xorijda ilmiy stajirovkadan o'tkazish, xorijiy mutaxassis va maslahatchilarni jalb qilish.

14. 2020-yil 1-dekabrda boshlab shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

a) Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan:

Oldingi tahrirga qarang.

biotexnologiyalar sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun jalb qilinadigan tijorat banklarining kreditlari bo'yicha kredit summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq 2,5 milliard so'mdan ortiq bo'lmagan miqdorda kafillik beriladi;

(14-band "a" kichik bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son — 2022-yil 1-iyuldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan biotexnologiyalar sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha foiz stavkasining asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30

foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi;

(14-band "a" kichik bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son — 2022-yil 1-iyuldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

(14-band "a" kichik bandining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-sonli Farmoniga asosan 2022-yil 1-iyuldan chiqariladi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(14-band "a" kichik bandining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-sonli Farmoniga asosan 2022-yil 1-iyuldan chiqariladi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son)

b) biotexnologiyalar sohasida ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasiga 3 million AQSh dollaridan kam bo'lmagan to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritgan xorijiy ilmiy tashkilotlarga Davlat budjetidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun 10 milliard so'mgacha maqsadli grantlar taqdim etiladi.

Bunda:

ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari uchun maqsadli grantlar kiritilgan investitsiya mablag'lari to'liq o'zlashtirilganidan so'ng taqdim etiladi;

Davlat budjeti mablag'lari hisobiga ilmiy faoliyat subyektlari tomonidan olingan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquq davlatning ilmiy va oliy ta'lim, shuningdek, boshqa davlat muassasalari nomidan, agar intellektual mulk obyektlari mualliflari bilan tuzilgan shartnomalarda boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, davlatga tegishli bo'ladi.

15. Shunday amaliyot joriy etilsinki, unga ko'ra:

Ilg'or texnologiyalar markazi har yili 1-dekabrga qadar Tarif va notarif tartibga solish kengashiga biotexnologik mahsulotlar ishlab chiqarish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan olib kiriladigan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan xomashyo, reaktivlar, butlovchi qismlar, detallar, uzellar, texnologik hujjatlar, dasturiy ta'minotlar uchun undiriladigan bojxona bojarini kamaytirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar kiritib boradi;

Tarif va notarif tartibga solish kengashi (S.U. Umurzakov) taqdim etilgan takliflarga asosan bojxona bojarini kamaytirish masalalarini ko'rib chiqib, belgilangan tartibda tegishli qaror qabul qiladi.

16. O'zbekiston Respublikasi Biologik xilma-xillik haqidagi Konvensiyaning bioxavfsizlik bo'yicha Kartaxen protokoliga (Monreal, 2000-yil 29-yanvar) qo'shilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Kartaxen protokoli qoidalarini amalga oshirish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi (Sh.U. Turdiqulova) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda tarkibida genetik modifikatsiyalangan organizmlar, pestitsidlar, oziq-ovqat qo'shimchalari va bo'yoqlar mavjud bo'lgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini markirovkalashni bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin:

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining hududlarda joylashgan laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o'tkazish;

Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi ilmiy tashkilotlar, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi qoshidagi "Agrosanoat majmuida xizmatlar ko'rsatish markazi" DUKda o'z mablag'lari hisobidan oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, o'simlikshunoslik uchun xomashyo, omuxta va ekish materiallari tarkibida genetik modifikatsiyalangan organizmlarning mavjudligini aniqlash uchun laboratoriyalarni (real ehtiyojlardan kelib chiqqan holda) tashkil etish.

17. Qishloq xo'jaligi vazirligi (J.A. Xodjayev) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda:

O'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha xalqaro konvensiya va boshqa tegishli xalqaro standartlarga muvofiq ruxsat berilgan pestitsidlar, zaharli kimyoviy moddalar ro'yxatini va mineral o'g'itlardan foydalanish normalarini qayta ko'rib chiqsin va tasdiqlasin;

biotexnologik mahsulotlar iste'moli hajmini oshirish, qishloq xo'jaligida kimyoviy o'g'itlar, pestitsidlar va boshqa zaharli kimyoviy moddalardan foydalanishdan biopreparatlarga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

Belgilab qo'yilsinki, 2021-yil 1-martdan boshlab pestitsidlar, gerbitsidlar va boshqa zaharli kimyoviy moddalarni ishlab chiqaradigan yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiradigan xo'jalik yurituvchi subyektlar ushbu moddalarning standart namunalari belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida o'simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari, defoliantlar hamda o'simliklar o'sishini boshqaruvchi vositalar ro'yxatiga kiritilishini va ushbu standart namunalari bilan birga sotilishini ta'minlaydi.

18. Kengash (A.N. Aripov) bir oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasining ishlab chiqilishi va Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta'minlasin:

biologik xavflarni monitoring qilish bo'yicha mustaqil tizimni yaratish;

biologik xavfsizlikni ta'minlashning milliy tizimi doirasida avtomatlashtirilgan axborot-tahliliy va prognoz-modellashtirish kompleksini yaratish;

obyektlar, hududlar va tabiiy hodisalarning biologik xavf-xatar darajasini aniqlash va toifalash bo'yicha yagona mezonlar va uslubiy bazani ishlab chiqish.

19. Sog'liqni saqlash vazirligi (A.M. Xadjibayev) mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2021-yil 1-martga qadar ushbu qaror qoidalarini inobatga olib, quyidagi huquqiy mexanizmlarni nazarda tutgan holda "O'zbekiston Respublikasi biologik xavfsizligi to'g'risida"gi qonun loyihasining ishlab chiqilishini yakuniga yetkazsin:

gen-muhandislik faoliyati xavfsizligini ta'minlash, shu jumladan genetik modifikatsiyalangan organizmlar xavfini baholashning milliy tizimini yaratish va uning faoliyat yuritishi;

vujudga kelgan biologik xavf-xatarlar bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan maqsadli ishlanmalarni tezkor moliyalashtirish.

20. Kengash (A.N. Aripov) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi V.V. Maxmudov bilan birgalikda bir hafta muddatda ushbu qarorda belgilangan vazifalar va tadbirlarning samarali ijrosini ta'minlash yuzasidan 2021-yil uchun chora-tadbirlar rejasini tasdiqlasin va ijrosini tashkil etsin, kelgusida har yilning 1-dekabriga qadar keyingi yil uchun xuddi shunday chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, amalga oshirilishini ta'minlasin.

21. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A.A. Xodjajev) O'zbekiston Milliy axborot agentligi (A.K. Kuchimov) va Milliy teleradiokompaniyasi (A.D. Xadjajev) bilan birgalikda ommaviy axborot vositalarida ushbu qaror mohiyati va ahamiyati bo'yicha chiqishlar va tematik teleko'rsatuvlar tashkil etsin.

22. Innovatsion rivojlanish vazirligi (I.Y. Abduraxmonov), Sog'liqni saqlash vazirligi (B.K. Yusupaliyev) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

23. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil etishga shaxsiy javobgar etib innovatsion rivojlanish vaziri I.Y. Abduraxmonov va sog'liqni saqlash vaziri A.M. Xadjibayev belgilansin.

Mazkur qaror ijrosini har chorakda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga har chorak yakuni bo'yicha axborot berib borilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 25-noyabr,
PQ-4899-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-son qaroriga

1-ILOVA

2020 — 2024-yillarda biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha

KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR DASTURI

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
I. Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish					
1	O'zbekiston Respublikasida hujayra texnologiyalarini rivojlantirish, shu jumladan hujayralarning muomalasi va ulardan foydalanish, biobanklarni tashkil etish va yuritish tartibi hamda biomaterialni saqlash qoidalarini belgilash, o'zak hujayralari sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga qo'riq chora-tadbirlarni ishlab chiqish.	Chora-tadbirlar dasturi	2021-yil 1-may	—	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>) , Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
2	<p>Biologik xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, biologik xavf-xatar darajasiga qarab biotibbiyot tadqiqotlarini o'tkazish va chiqindilarni xavfsiz ravishda utilizatsiya qilish uchun laboratoriyalarni loyihalashtirish va qurish, ushbu sohadagi aniq tibbiy-biologik tadqiqotlarni o'tkazishga qodir malakali xodimlarni tayyorlash va tanlashga qaratilgan tibbiy-biologik tadqiqotlar tizimini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.</p>	Chora-tadbirlar dasturi	2021-yil 1-avgust	—	<p>Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>)</p>
3	<p>Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ish-tirikchi davlatlarining Parlamentlararo Assambleyasi tomonidan tasdiqlangan "Madaniy o'simliklarning genetik resurslarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish to'g'risida"gi model qonunini qabul qilish.</p>	Qonun loyihasi	2021-yil 1-may	—	<p>Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (<i>Maksudov</i>), O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi (<i>Bakirov</i>)</p>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
4	Inson hujayralari va to'qimalaridan foydalanish chog'ida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, shu jumladan inson organlari va to'qimalarini hamda donorlarni chetga olib ketishning oldini olish bo'yicha huquqiy mexanizmlarni belgilash.	Normati v-xuquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 1-mart	–	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
5	Biotexnologiya mahsulotlarini ishlab chiqarishga xalqaro standartlarni, shu jumladan biotexnologiya mahsulotlari bo'yicha ISO 20387:2018, ISO 20391-1:2018, ISO 20391-2:2019, ISO 20395:2019, ISO 20688-1:2020 xalqaro standartlarini joriy etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-oktabr	–	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), "O'zstandart" agentligi (<i>Sattarov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
6	Biotexnologiya usullarini qo'llagan holda olingan urug'lik ekinlarining navlari va gibridlarini yaratish va ulardan tijorat maqsadlarida foydalanish sohasidagi normativ-huquqiy	Chora-tadbirlar dasturi	2021-yil 15-may	–	Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>) O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi (<i>Bakirov</i>), O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi (<i>Ergashev</i>)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	bazani takomillashtirish.				
7	Biotexnologiyalar, shu jumladan bioenergetika va biotibbiyot sohasida professional malaka standartlarini ishlab chiqish.	Chora-tadbirlar dasturi	2022-yil 1-iyul	–	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (<i>Xusanov</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
8	O'rmon fondi yerlarida daraxtlar va butalar urug'liklarini yetishtirish bosqichida biopreparatlardan foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlash, shuningdek biopreparatlarni ishlab chiqarish bosqichidan ularning samaradorligini baholash bosqichigacha nazorat qilish tizimini shakllantirishni nazarda tutgan holda o'rmonlarni himoya qilish bo'yicha qonun hujjatlarini takomillashtirish.	Kompleks chora-tadbirlar	2021-yil 15-may	–	O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi (<i>Bakirov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi (<i>Ergashev</i>)
9	Biologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida davlat nazoratini takomillashtirish, shu jumladan: biologik jihatdan xavfli	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari	2021-yil 1-noyabr	–	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (<i>Maksudov</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>),

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	<p>obyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning samaradorligini oshirish;</p> <p>biologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida davlat organlari va tashkilotlarining vakolatlari va javobgarligini chegaralash;</p> <p>biotexnologiya mahsulotlari va biotexnologiya xavfsizligini baholash, inson salomatligi hamda atrof-muhit holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan biotexnologiya mahsulotlarini ishlab chiqish, muomalaga kiritish va ulardan foydalanish ustidan nazorat qilishni ta'minlash borasida baholash tizimini ishlab chiqish;</p> <p>biologik xavfsizlik talablariga rioya etmaslik, shu jumladan biologik jihatdan xavfli obyektlarni joylashtirish, loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish, konservatsiyalash,</p>				<p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	<p>faoliyat ixtisosligini o'zgartirish va tugatish qoidalarini buzish, biologik agentlar va materiallar hamda genetik modifikatsiyalangan organizmlarning noqonuniy muomalasi, biologik materiallarni talon-toraj qilish yoki tovlamachilik qilish uchun javobgarlikni kuchaytirish; inson organlari va to'qimalarini hamda donorlarni chetga olib ketishning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.</p>				
1	<p>Hayvonot qabristonlari, biotermik o'ralardan foydalanish, biologik chiqindilarni yig'ish, utilizatsiya qilish va yo'q qilib tashlashda biologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida qonun hujjatlarini takomillashtirish.</p>	Chora-tadbirlar dasturi	2021-yil 1-mart	–	<p>Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>Norqobilov</i>), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (<i>Maksudov</i>), O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi (<i>Ergashev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
1	<p>Respublika, hududiy va mahalliy darajada hamda tashkilotlarda biologik xavflarni</p>	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil 1-aprel	–	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi</p>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish.				<p>(Maksudov), Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (Norqobilov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), O'simliklar karantini va himoyasi agentligi (Ergashev), Fanlar akademiyasi (Yuldashev)</p>
1	<p>Biologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida davlat axborot tizimini joriy etish, mansabdor shaxslar, shuningdek, aholining xabardorligini oshirish maqsadida biologik jihatdan xavfli obyektlarning turg'un ishlash sharoitlarida va ularda favqulodda holatlar vujudga kelishida xavflarni boshqarishning innovatsion telekommunikatsiya tuzilmasini rivojlantirish, biologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida ma'lumotlarni himoya qilish</p>	Normati v-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 1-may	Ijrochilar mablag'lari	<p>Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sadikov), Favqulodda vaziyatlar vazirligi (Qo'ldoshev), Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (Maksudov), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (Norqobilov), O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi (Ergashev)</p>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	vositalari, usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish.				
1	Sintetik biologiya sohasidagi ishlanmalarni, shu jumladan sintetik biologik texnologiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlarni monitoring qilish tizimini yaratish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-iyun	–	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
1	Xavfli biologik agentlarni ishlab chiqarish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan biotexnologiyalar sohasidagi ilg'or ilmiy-texnik yutuqlar haqida xorijiy mamlakatlar bilan axborot almashish sohasida normativ-huquqiy jihatdan tartibga solishni takomillashtirish.	Chora-tadbirlar dasturi	2021-yil 1-sentabr	–	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>Norqobilov</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi (<i>Ergashev</i>), Tashqi ishlar vazirligi (<i>Kamilov</i>)
1	O'ta xavfli infeksiyalar to'g'risida xabardor qilish tartibini "Xalqaro tibbiy-sanitariya qoidalari — 2005"ga moslashtirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-oktabr	–	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (<i>Yusupaliyev</i>), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>Norqobilov</i>),

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
					Favqulodda vaziyatlar vazirligi (<i>Qo'ldoshev</i>)
1	Ilg'or davolash usullarini inobatga olgan holda o'ta xavfli infeksiyalarning ayrim turlarini (chechak, kuydirgi, gemorragik isitmali qaltiroq, brutsellyoz, quturish) profilaktika qilish va davolash bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish.	Idoraviy normati v- huquqiy hujjatlar loyihalar	2021-yil 1-noyabr	–	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>Norqobilov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (<i>Yusupaliyev</i>)
1	JSST va Xalqaro epizootik byuro tavsiyalari, shuningdek, ilg'or mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda biologik chiqindilarni yig'ish, tashish, saqlash, zararsizlantirish va yo'q qilish tartibini belgilovchi veterinar-sanitar normalarni takomillashtirish.	Idoraviy normati v- huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil 1-mart	–	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>Norqobilov</i>), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (<i>Maksudov</i>), Adliya vazirligi (<i>Davletov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (<i>Yusupaliyev</i>)
1	Xalqaro standartlar va zamonaviy talablarga muvofiqlashtirish maqsadida veterinariya tadbirlari uchun qo'llaniladigan mikroorganizmlar va viruslar shtammlari,	Idoraviy normati v- huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil 1-fevral	–	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>Norqobilov</i>), O'simliklar karantini va himoyasi agentligi (<i>Ergashev</i>), Adliya vazirligi (<i>Davletov</i>)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	toksinlar hamda tabiiy va o'simliklardan olinadigan zaharlarni saqlash, ulardan foydalanish, shuningdek, ularni yetkazib berish tartibini takomillashtirish.				
1	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda kelib chiqishi biologik tusga ega mahsulotlar (shu jumladan o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish vositalari) maqomining ustunligini ta'minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etish.	Normati v- huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 1-iyun	–	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
2	Qishloq xo'jaligi ekinlarining genetik modifikatsiyalangan navlari to'g'risida milliy ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibini belgilash.	Normati v- huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 1-avgust	–	Bioxavfsizlik milliy muvofiqlashtiruvchi markazi (Buriyev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev)
2	Genetik modifikatsiyalangan organizmlar va ularning mahsulotlari	Normati v- huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 1-dekabr	–	Milliy muvofiqlashtirish markazi (Buriyev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov),

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	xavfsizligini ilmiy ekspertizadan o'tkazish tartibini belgilash.				Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
2	Biotexnologiya mahsulotlari va biotexnologiya namunalari olib kirish va olib chiqishning bo'xona tartib-taomillarini soddalashtirish.	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-iyun	–	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Davlat bo'xona qo'mitasi (<i>Azimov</i>)
II. Biotexnologiya mahsulotlarini yaratish, joriy etish, ishlab chiqarish va realizatsiya qilishning yaxlit infratuzilmasini tashkil etish, shu jumladan investitsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish					
2	Tajribaviy yopiq siklli, shu jumladan personallashtirilgan biologik qishloq xo'jaligi, bioagrofermalar, bioyoqilg'i, chiqindilarni qayta ishlash elementlarini qamrab oluvchi biotexnologik agroklasterni tashkil etish to'g'risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-yanvar	–	Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
2	Bioyoqilg'i ishlab chiqarish tarmog'ini rivojlantirish maqsadida absolyutlashtirilgan texnik spirtni ishlab chiqarishni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-avgust	–	Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi (<i>Boboyev</i>), Energetika vazirligi (<i>Sultanov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), manfaatdor vazirlik

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.				va idoralar
2	Tashlanmalar bo'yicha texnologik normativlarni bosqichma-bosqich kuchaytirishga qaratilgan, parrandachilik, o'simlikshunoslik, oziq-ovqat sanoati hamda neft va neft mahsulotlari, ko'mir va ko'mir kimyosini ishlab chiqarish, saqlash, uzatish va yetkazib berishda yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarining chiqindilaridan ishlab chiqarilgan bioenergetikaning texnik mahsulotlariga talabni rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish.	Normati v-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 15-oktabr	–	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (<i>Maksudov</i>), Energetika vazirligi (<i>Sultanov</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
2	O'simliklarni kimyoviy himoyalash vositalaridan foydalanishdan ularni biologik himoyalash vositalaridan foydalanishga o'tgan holda, ushbu vositalarni xarid qilish bilan bog'liq	Normati v-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 15-yanvar	–	Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), "O'zagrokimyohimoya" AJ (<i>Umurov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	xarajatlarning bir qismini subsidiyalash mexanizmini joriy etish.				
2	Don ekinlarni chuqur qayta ishlash va biopreparatlarning keng doirasini shakllantirish bo'yicha biotexnologiya kompleksini tashkil etish bo'yicha takliflar tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-iyun	–	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
2	Qishloq xo'jaligida innovatsion biotexnologiya mahsulotlarini o'zlashtirish va joriy etish uchun tajriba-sinov korxonalarini tashkil etishni birgalikda moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 15-dekabr	–	Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), manfaatdor vazirlik va idoralar
2	Mamlakatimizda biotexnologiyalarni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi vakillari ishtirok etishi uchun tavsiya etiladigan xalqaro professional tashkilotlar,	Tahliliy materiallar	2021-yil 15-dekabr	–	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), manfaatdor vazirlik va idoralar

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	ittifoqlar, uyushmalar ro'yxatini tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.				
3	Mahalliy achitqilar, bakkonsentratlar, starter va probiotik mahsulotlar (mikroorganizmlar), to'g'ridan to'g'ri kiritish xamirturushlari, yuqori biologik qimmatga ega oqsillarni ishlab chiqaruvchi tajriba-sinov ishlab chiqarishlarni tashkil etish, shuningdek, mahalliy madaniy o'simliklarni qayta ishlab chiqaruvchi korxonalarini rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Tahliliy materiallar	2021-yil 15-sentabr	–	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (<i>Ortiqov</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
3	O'rmon urug'liklarini rayonlashtirish, ularni sertifikatlash, o'rmon daraxtzorlarining fitosanitar holati va biologik xilmaxilligini monitoring qilish amaliyotiga molekyar	Tahliliy materiallar	2021-yil 15-sentabr	–	O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi (<i>Bakirov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	markirovkalash texnologiyalarini joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.				
3	O'rmon biotexnologiyalari ga ixtisoslashtirilgan ilmiy-ishlab chiqarish markazini tashkil etish bo'yicha takliflar tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-iyun	–	O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi (<i>Bakirov</i>)
3	Amaldagi selluloza-qog'oz korxonalarini modernizatsiya qilish, shu jumladan chuqur qayta ishlangan mahsulotlarni (biogaz, biodizel, biokimyoviy vositalar) olishning yangi texnologik jarayonlarida energetik va ekologik samaradorlikni oshirish, yog'och va chiqindilardan kompleks va to'liq foydalanish, mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishga qaratilgan takliflar tayyorlash va Vazirlar	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-aprel	–	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (<i>Ortiqov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	Mahkamasiga kiritish.				
3	<p>Diagnostikuml ar, to'qima-muhandislik konstruksiyalari va biologik jihatdan mos keladigan tibbiyot materiallarini yaratishning sanoat texnologiyalarini o'zlashtirish uchun tajriba-sinov ishlab chiqarishlarni (prototiplashtirish markazlari) tashkil etish bo'yicha takliflar tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-oktabr	–	<p>Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)</p>
3	<p>Irsiy patologiyaga ega bolalar tug'ilishining xavf guruhlarini aniqlash uchun nikohdan o'tayotgan shaxslarni ixtiyoriy genetik skriningdan o'tkazish mexanizmlarini joriy etish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-yanvar	Ijrochilar mablag'lari	<p>Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Adliya vazirligi (<i>Davletov</i>)</p>
3	<p>Farmatsevtika va veterinariya sohasida biotexnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, shu jumladan: ilmiy-tadqiqot muassasalarida yaratilgan dori vositalarini</p>	Chora-tadbirlar rejasi	2021-yil 1-fevral	–	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentiligi (<i>Kariyev</i>), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat (<i>Norqobilov</i>),</p>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	<p>mahalliy farmatsevtika va veterinariya korxonalarida ishlab chiqarishga tatbiq etish;</p> <p>har yili kamida beshta original mahalliy dori vositalari, diagnostika test-tizimlari, tibbiyot jihozlari va chorvachilik uchun preparatlarni ishlab chiqarishga joriy etish va realizatsiya qilish, shuningdek, ularning reklamasi va marketingini ta'minlash;</p> <p>farmatsevtika va veterinariya sohasida biotexnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishidagi dunyoning yetakchi markazlarida malakali mutaxassislarni tayyorlash.</p>				<p>Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>),</p> <p>O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi (<i>Ergashev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>) manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
3	<p>Ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib tashlash va oqizishni tozalash, shuningdek, atrof-muhitga antropogen ta'sirni kamaytirish uchun biotexnologiyalarni joriy etayotgan korxonalarni rag'batlantirish</p>	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-mart	–	<p>Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (<i>Maksudov</i>),</p> <p>Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (<i>Norqulov</i>)</p>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	chora-tadbirlarini ishlab chiqish.				
3	Biotexnologik mahsulotlarni ishlab chiqarish ulushini oshirish, kimyoviy sintezni biologik sintezga almashtirish, chiqindilarni biotexnologik ishqorlash va qayta ishlash usullarini joriy etish.	Chora-tadbirlar rejasi	2021-yil 1-oktabr	–	“O‘z kimyosanoat” AJ (<i>Mirzamaxmudov</i>), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi (<i>Maksudov</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (<i>Norqulov</i>)
3	Bioremediatsiya yo‘nalishi bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-fevral		Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi (<i>Maksudov</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
4	Biotexnologiyalar usullarini qo‘llagan holda olingan daraxt va buta navlarining yangi yaxshilangan shakllarini yaratish va tijoratlashtirishni kengaytirish.	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-mart	–	O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi (<i>Bakirov</i>) Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
III. Innovatsion biotexnologiya mahsulotlarini ishlab chiqish uchun mazkur sohada ilmiy salohiyatni mustahkamlash va ilmiy tadqiqotlarning darajasini oshirish, global ilmiy makonga ilmiy integratsiyalashuvni ta‘minlash					
4	Biotexnologiyani rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha vazifalarga muvofiq Ilg‘or texnologiyalar markazi faoliyatini takomillashtirish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 15-fevral	–	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Ilg‘or texnologiyalar markazi (<i>Turdiqulova</i>)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
4	<p>O'zbek kimyo-farmatsevtika ilmiy-tadqiqot instituti va "Sharq tabobati" ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan: institutlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash;</p> <p>O'zbek kimyo-farmatsevtika ilmiy-tadqiqot institutida yangi dori vositalarini yaratish bo'yicha o'quv ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyasi hamda mikrobiologiya laboratoriyasini tashkil etish;</p> <p>"Sharq tabobati" ilmiy-tadqiqot institutida dorivor xomashyo asosida olingan yangi dori vositalariga oid farmatsevtik-toksikologik tadqiqotlar laboratoriyasini tashkil etish;</p> <p>substansiyalar va tayyor dori vositalarini kichik seriyalarda ishlab chiqarish uchun</p>	<p>Normati v-huquqiy hujjat loyihasi</p>	<p>2021-yil 15-noyabr</p>	<p>Xalqaro moliya institutlari kredit va grant mablag'lari, budjetdan tashqari mablag'lar doirasida</p>	<p>Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)</p>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	institutlar negizida tajriba-ishlab chiqarish maydonchalarini tashkil etish; institutlar binolari va inshootlarini rekonstruksiya qilish.				
4	Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Biotexnologiya bo'yicha ilmiy-texnik kengash tashkil etish.	Tashkiliy choralar	2020-yil 15-dekabr	–	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
4	Innovatsion rivojlanish vazirligi ilmiy-tadqiqot muassasalarining chuqur ilm talab etadigan biotexnologik mahsulotlarini realizatsiya qilish maqsadida developerlik kompaniyalar ko'rinishidagi, shu jumladan xususiy "startap" loyihalarini amalga oshirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020 — 2024-yillar davomida	Ijrochilar va homiylar mablag'lari	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
4	Fanlar akademiyasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi tizimidagi tegishli ilmiy-tadqiqot muassasalarida yetuk mutaxassis kadrlarni	Amaliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-dekabr	Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari, Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida,	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>),

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	<p>tayyorlagan va malakasini oshirgan holda, biologik kolleksiyalar tarmog'i — o'zak hujayralari banki, DNK biobanki, hujayra materiali biobanki, virusli va bakterial patogenlar, biologik faol moddalar banklarini tashkil etish.</p> <p>Mavjud biologik to'plamlarni xatlovdan o'tkazish va uning natijalari asosida yagona reyestr va ma'lumotlarning raqamli bazasini yaratish, xalqaro ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyasini ta'minlash va saqlash uchun tegishli ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.</p>			ijrochilar va homiyar mablag'lari	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>)
4	Mamlakatdagi yirik biologik kolleksiyalarni xatlovdan o'tkazish va milliy bioresurslar markazlari etib qayta tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-fevral	—	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.				
4	Biosanoatni rivojlantirish bo'yicha prognozlarni tuzish, biotexnologiya sohasida forsait tadqiqotlar o'tkazish va ustuvor ilmiy yo'nalishlarni belgilash.	Chora-tadbirlar rejasi	2021-yil 1-noyabr	–	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
4	Biotexnologiyalardan foydalanish uchun ilmiy yondashuvni talab etadigan muammolar ro'yxatini shakllantirish orqali biotexnologiyalarning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot buyurtmalari portfelini shakllantirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-may	Ijrochilar mablag'lari	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), "O'zkimyosanoat" AJ (<i>Mirzamaxmudov</i>), "O'zbekneftgaz" AJ (<i>Abdullayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
4	Genetik modifikatsiyalangan organizmlar xavfini baholashning milliy tizimini yaratishga qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazish.	Amaliy chora-tadbirlar	2021 — 2023-yillar	Davlat ilmiy-texnika dasturlarini amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar, xalqaro grantlar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Milliy muvofiqlashtirish markazi (<i>Buriyev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>)

T/r	Chorataadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
5	Xalqaro standartlarga muvofiq genetik modifikatsiyalangan organizmlarning ekologik xavfini baholash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish uchun tajriba-sinov maydonlarini tashkil etish.	Tashkiliy chorataadbirlar	2021-2022 yillar	Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (<i>Maksudov</i>), Milliy muvofiqlashtirish markazi (<i>Buriyev</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>)
5	Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida biotexnologiya yo'nalishida amalga oshiriladigan fundamental, amaliy hamda innovatsion loyihalarda doktorantlarning ishtirokini majburiy etib belgilash.	Tahliliy materiallar	2021-yil yanvar	–	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Oliy attestatsiya komissiyasi (<i>Yusupov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>)
5	Ilg'or texnologiyalar markazi, Genomika va bioinformatika markazi, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti hamda Umumiy va noorganik kimyo instituti laboratoriyalarini ISO17025 standartiga muvofiq akkreditatsiyadan o'tkazish.	Tashkiliy chorataadbirlar	2021-yil 1-oktabr	Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), "O'zstandart" agentligi (<i>Sattarov</i>)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
5	<p>Fanlar akademiyasining Umumiy va noorganik kimyo institutida Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti bilan hamkorlikda tuproq, suv va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi pestitsidlar va kuchli ifloslantiruvchi turg'un organik birikmalar miqdorini o'rganishga hamda import-eksport mahsulotlarida karantin obyektlarini aniqlashga ixtisoslashgan laboratoriyani tashkil etish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-may	Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), manfaatdor vazirlik va idoralar
5	<p>Akkreditatsiya dan o'tgan Ilg'or texnologiyalar markazi laboratoriyasiga laboratoriya tadqiqotlari natijalari asosida nizolarni hal etishda biotexnologik mahsulotlarni "uchinchi tomon" sifatida tahlil qilish bo'yicha referens-laboratoriya</p>	Kompleks chora-tadbirlar	2022-yil 1-oktabr	Ijrochilar mablag'lari, Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), "O'zstandart" agentligi (Sattarov)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	vakolatini berish, shu jumladan: me'yoriy hujjatlarni tayyorlash va laboratoriyani to'liq jihozlash; xodimlarni o'qitish va sertifikatlash; ISO/IEC17043 standarti talablariga muvofiq malaka sinov dasturlarini tashkil etish va ularda ishtirok etish.				
5	O'zgartirilgan xususiyatlarga ega o'simliklarning biotexnologik va naslchilik shakllari, shuningdek, o'simliklarning biologik himoyasi hamda o'stirishning stimulatsiya vositalarini uzoq muddatli dala sinovlaridan o'tkazish uchun poligonlar yaratish.	Amaliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-oktabr	Ijrochilarning budjetdan tashqari mablag'lari	Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi (<i>Ergashev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
5	Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning iste'moli va inson sog'ligiga ta'sirini o'rganishda fudomiks asoslarini joriy etish va rivojlantirish	Chora-tadbirlar rejasi	2021-yil 1-dekabr	–	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>)

T/r	Chorataadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	bo'yicha dastur ishlab chiqish.				
5	Biotexnologiya va gen muhandisligi sohasidagi loyihalarni ko'paytirish uchun startap akseleratsiya dasturlarini, shu jumladan CAT Science Accelerator dasturlarini amalga oshirish, shuningdek gen muhandisligi yo'nalishida mutaxassislarni o'qitish bo'yicha kvotalarni oshirish va ularga imtiyozlar yaratish.	Tashkiliy choralar	2020 — 2024-yillar davomida	Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>)
5	Biotexnologiya sohasida xalqaro ilmiy anjumanlar, forumlar, biznes-seminarlar, ko'rgazmalar o'tkazish.	Tashkiliy chorataadbirlar	2020 — 2022-yillar davomida	—	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
5	Xalqaro genetika muhandisligi va biotexnologiyalar markazi (ICGEB) bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish masalasini o'rganish.	Tashkiliy chorataadbirlar	2021-yil 1-mart	Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Tashqi ishlar vazirligi (<i>Kamilov</i>)
IV. Biotexnologiya sohasida, shu jumladan uning bioinformatika, biofarmatsevtika, biotibbiyot, fudomiks, metabolomika, xemometrika yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish					

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
6	<p>Jahon fani rivojlanishining tendensiyalariga muvofiq “biotexnologiya”, “gen va hujayra muhandisligi”, “genomika” va “bioinformatika” fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini yangilash, shuningdek, “fudomiks”, “xemometrika”, “metabolomika”, “bioxavfsizlik” hamda “genetik modifikatsiyalangan organizmlar xavflarini baholash” fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga joriy etish.</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2021/2022 o'quv yiliga	–	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
6	<p>O'zbekiston Milliy Universiteti biologiya fakultetida alohida biotexnologiya kafedrasini va biotexnologiya ixtisosligi bo'yicha ta'lim yo'nalishini tashkil etish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021/2022 o'quv yilidan boshlab	–	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>)
6	<p>Biotexnologiya mutaxassisliklari bo'yicha magistrlik dissertatsiyalarini loyihaviy himoyalash tizimini (“startap” loyihalari, biznes-rejalarni</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2022/2023 o'quv yilidan boshlab		Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	tayyorlash) joriy etish.				
6	Magistrant-talabalar va PhD-doktorantlarga ta'lim berish va ilmiy tadqiqotlarga rahbarlik qilish uchun olimlar va o'qituvchilarning salohiyatini oshirish maqsadida yetakchi xorijiy texnologiya universitetlari professor va tadqiqotchilarini, shu jumladan vatandoshlarni jalb qilish.	Tashkiliy choralar	2020 — 2024-yillar davomida	“El-yurt umidi” jamg'armasi, Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), “El-yurt umidi” jamg'armasi (<i>Bekmuradov</i>)
6	Bitiruvchi kurs talabalarining ishlab chiqarish korxonalarida 6 oy stajirovka o'tashini tashkil etish va ularning ish joylari bilan ta'minlanishiga ko'maklashish.	Tashkiliy choralar	Har yili	Tegishli oliy ta'lim muassasalarining budjetdang tashqari mablag'lari	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>)
6	Biotexnologiya korxonalarining kadrlarga bo'lgan ehtiyojiga muvofiq biotexnologiya tarmog'i va qo'shimcha mutaxassisliklarning turli toifalari uchun mavjud ta'lim standartlarini qayta ko'rib chiqish va yangilarini ishlab chiqish, shu jumladan:	Kompleks chora-tadbirlar	2021-yil 1-may	Ijrochilar mablag'lari	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (<i>Norqulov</i>)

T/r	Choratadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	<p>biotexnologiya sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha amaldagi mutaxassislik va yo'nalishlarni xatlovdan o'tkazish; yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari, shuningdek, qabul kvotalarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va kiritish; biotexnologiya va gen muhandisligining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmfanning bugungi holatini inobatga olgan holda yangi o'quv dasturlari va standartlarini shakllantirish.</p>				
6	<p>Olimlar va o'qituvchilarning yetakchi biotexnologiya markazlarida ta'lim olishi va stajirovka o'tashini, shuningdek, magistrantlar va PhD-doktorantlarning tahsil olishini tashkil etish.</p>	<p>Kompleks choratadbirlar</p>	<p>2021 — 2024-yillar</p>	<p>“El-yurt umidi” jamg'armasi, Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), “El-yurt umidi” jamg'armasi (<i>Bekmuradov</i>)</p>
6	<p>Yetakchi kompaniyalar va oliy ta'lim muassasalarining biotexnologik markazlari yuqori malakali</p>	<p>Tashkiliy choratadbirlar</p>	<p>2020 — 2022-yillar davomida</p>	<p>Ijrochilar mablag'lari</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>)</p>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	mutaxassislarini jalb qilgan holda zamonaviy o'quv uslubiyatlarini joriy etish.				
6	Biotexnologiy a sohasidagi ishlab chiqarish korxonalar uchun bitiruvchi kurs talabalarining demo-kunlarini o'tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Har yili	Ijrochilar mablag'lari	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>)
6	<p>Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash maqsadida biotexnologiya yo'nalishida oliy ta'limdan keyingi ta'lim doirasida tayanch doktorant va doktorantlarga tegishli oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi hamda ishlab chiqarish korxonalar o'rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq ikkitalik ilmiy rahbarlikni joriy etish.</p> <p>Bunda, birinchi ilmiy rahbar oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi tomonidan, ikkinchi rahbar esa ishlab chiqarish korxonasi</p>	Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish	2021-yil 1-yanvar	—	<p>Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>),</p> <p>Oliy attestatsiya komissiyasi (<i>Yusupov</i>),</p> <p>Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>),</p> <p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi</p> <p>(<i>Madjidov</i>)</p>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	tomonidan tayinlanadi.				
7	Oliy ta'lim muassasalarida biotexnologiya yo'nalishida zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv, ilmiy va kichik eksperimental tajriba maydonchalarini tashkil etish.	Tashkiliy choralar	2020-2021-yillar davomida	Xalqaro moliya institutlari kredit va grantlari, tegishli oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
V. Mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish					
7	Mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan lokal laboratoriyalar, tajriba, ilmiy-ishlab chiqarish va sanoat quvvatlarini tashkil etish va modernizatsiya qilish.	Chora-tadbirlar rejasi	2021-yil 1-dekabr	Ijrochilar mablag'lari	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (<i>Maksudov</i>)
7	Atrof-muhitda va biologik muhitlarda xavfli biologik agentlar va mahsulotlarni aniqlash uchun indikatsiya vositalarini ishlab chiqish.	Tashkiliy choralar	2023-yil 1-iyun	Ijrochilar mablag'lari	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>Norqobilov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>),

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
					<p>Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>),</p> <p>Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (<i>Maksudov</i>)</p>
7	<p>Biologik xavfsizlik sohasida kadrlar salohiyatini mustahkamlash va mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, shu jumladan:</p> <p>toksikolog, profpatolog, epidemiolog, bakteriolog, virusolog, parazitolog, entomolog va epizootolog kabi mutaxassislarni tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu mutaxassisliklarning jozibadorligi va nufuzini oshirish;</p> <p>biologik jihatdan xavfli obyektlardan foydalanishda biologik xavfsizlikni ta'minlash uchun kadrlar, shu jumladan ma'muriy-texnik xodimlarni tayyorlash darajasini oshirish;</p>	<p>Normati v-huquqiy hujjat loyihasi</p>	<p>2022-yil 1-may</p>	<p>–</p>	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>),</p> <p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>),</p> <p>Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (<i>Maksudov</i>),</p> <p>Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>Norqobilov</i>),</p> <p>Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>),</p> <p>Favqulodda vaziyatlar vazirligi (<i>Qo'ldoshev</i>),</p> <p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	<p>biologik xavflarni tahlil qilish, xavflarni boshqarish texnologiyalarini qo'llash kabi yo'nalishlarda o'quv dasturlarini ishlab chiqish; idoralararo o'zaro hamkorlik qilish, shu jumladan biologik tusga ega favqulodda holatlarning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha mashqlar va mashg'ulotlarni o'tkazish.</p>				
7	<p>Biologik xavfsizlik sohasida yakka tartibda va jamoaviy himoya qilish vositalari, atrof-muhitda xavfli biologik agentlarni topish va ularni nazorat qilish bo'yicha avtomatlashtirilgan tizimni ishlab chiqish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2023-yil 1-mart	Ijrochilar mablag'lari	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Xadjibayev),</i></p> <p>Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi <i>(Maksudov),</i></p> <p>Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi <i>(Norqobilov),</i></p> <p>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi <i>(Sadikov)</i></p>
7	<p>Boshqaruv qarorlari qabul qilinishining asoslanganligini oshirish maqsadida biologik xavfsizlik</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-yil 1-avgust	Ijrochilar mablag'lari	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Xadjibayev),</i></p>

T/r	Choradabirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	sohasidagi holatlarni prognozlash va tezkor baholash uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va joriy etish.				Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi <i>(Maksudov)</i> , Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi <i>(Norqobilov)</i> , manfaatdor vazirlik va idoralar
7	Bioxavfsizlik milliy muvofiqlashtiruvchi markazi faoliyatini tashkil etish maqsadida uning xodimlarini boshqa mamlakatlarning bioxavfsizlik bo'yicha muvofiqlashtiruvchi markazlarida stajirovkadan o'tkazishni tashkillashtirish.	Tashkiliy choradabirlar (o'tkaziladigan tanlovlar natijasida)	2021-yildan boshlab	Markazning budjetdan tashqari mablag'lari, Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	Fanlar akademiyasi <i>(Yuldashev)</i> , Innovatsion rivojlanish vazirligi <i>(Abduraxmonov)</i>
7	Karantin va o'ta xavfli, shu jumladan yangi va qaytalanadigan infeksiyalar diagnostikasi, davolanishi hamda profilaktikasini amalga oshirayotgan tibbiy va veterinar muassasalar xodimlarini o'qitish tizimi va dasturlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.	Tahliliy materiallar	2022-yil 1-may	–	Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Xadjibayev)</i> , Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi <i>(Norqobilov)</i> , O'simliklar karantini va himoyasi agentligi <i>(Ergashev)</i>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
7	Xavfli biologik omillar ta'siridan aholini himoya qilish va atrof-muhitni muhofaza qilishning zamonaviy usullari, vositalari va texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish.	Chora-tadbirlar rejasi	2021-yil 1-noyabr	–	Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Xadjibayev)</i> , Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi <i>(Maksudov)</i> , Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi <i>(Gulyamov)</i> , Innovatsion rivojlanish vazirligi <i>(Abduraxmonov)</i> , Fanlar akademiyasi <i>(Yuldashev)</i>
7	Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan pestitsidlar va zaharli kimyoviy moddalarni, ularning oziq-ovqat mahsulotlarida mavjudligi hamda tovar markirovkasidagi ma'lumotlarga mosligini nazorat testlaridan o'tkazish tartibi, shuningdek, qishloq xo'jaligida qo'llanilayotgan bioo'g'itlar va biopreparatlar, polimerli tarkibga ega kimyoviy himoya vositalarini nazorat tartibida xarid qilish va ularning	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 1-fevral	–	Qishloq xo'jaligi vazirligi <i>(Xodjayev)</i> , manfaatdor vazirlik va idoralar

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	sifatini sinovdan o'tkazish tartibini belgilash.				
8	<p>Respublikada barqaror sanitar-epidemiologik muhitni izdan chiqarishga qodir biologik omillarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni quyidagilarni inobatga olgan holda ishlab chiqish:</p> <p>kelib chiqishi tabiiy bo'lgan infeksiyalar, shu jumladan ommaviy tarqalish xavfiga ega tabiiy-o'choqli o'ta xavfli infeksiyalar (epidemiya, epizootlar) mavjudligi; yangi kam o'rganilgan infeksiyalar vujudga kelishi; mamlakat hududida zoonoz infeksiyalarning tabiiy rezervuarlari mavjudligi va (yoki) faollashishi; hisobga olingan va hisobga olinmagan hayvonlar ko'milgan joylar (hayvonot qabristonlari) va stasionar-nomaqbul</p>	Kompleks amaliy chora-tadbirlar	2022-yil 1-may	–	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi</p> <p>(<i>Xadjibayev</i>), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati</p> <p>(<i>Yusupaliyev</i>),</p> <p>Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>),</p> <p>Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>Norqobilov</i>),</p> <p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	<p>joylarning mavjudligi va (yoki) faollashishi; zamonaviy tibbiyot imkoniyatlaridan o'tib ketgan yuqumli kasalliklar, shu jumladan davolash uchun samarali terapiya vositalari mavjud bo'lmagan virusli infeksiyalar sonining o'sishi; ijtimoiy jihatdan ahamiyatli infeksiyalar sonining o'sishi ("V" va "S" gepatitlari, IFA, OITS, tuberkulyoz); laboratoriyalar da ichki zararlanish natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan kasbiy yuqumli kasalliklar; xavfli biologik obyektlar va ishlab chiqarishlarda tabiiy va texnogen halokatlar, avariya uchun sharoitlar mavjudligi; biotexnologiya lardan qonunga xilof ravishda foydalanish, shu jumladan xavfli biologik obyektlardan ruxsatsiz</p>				

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	<p>foydalanish va diversiyalar bilan bog'liq xavflarning o'sishi.</p> <p>Bunda: Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti va Respublika o'lat profilaktikasi markazi mutaxassislarini jalb qilish; aholining sanitar-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi organlar va muassasalarining laboratoriya xizmatlarini rivojlantirish nazarda tutiladi.</p>				
8	<p>Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Mudofaa vazirligi tayyorgarligi va harakatchanligini oshirish orqali favqulodda vaziyatlar chog'ida biologik xavf-xatarlarni bartaraf etishda ularning rolini kuchaytirish bo'yicha takliflar tayyorlash.</p>	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-may	–	<p>Favqulodda vaziyatlar vazirligi</p> <p><i>(Qo'ldoshev),</i></p> <p>Mudofaa vazirligi <i>(Kurbanov)</i></p>
8	<p>Aholini biologik xavf-xatarlar to'g'risida xabardor qilishning samarali tizimini joriy etish</p>	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-fevral	–	<p>Favqulodda vaziyatlar vazirligi</p> <p><i>(Qo'ldoshev), Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev),</i></p>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	bo'yicha takliflar tayyorlash.				Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (Maksudov), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (Norqobilov)
8	Ayollarda bachadon bo'yi saratonini profilaktika qilish uchun inson papillomasi virusini skrining qilish dasturini keng joriy etish.	Amaliy chora-tadbirlar rejasi	Har yili 15-dekabr ga qadar	Xalqaro moliya institutlari mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Vafayev)
8	Odamlar to'planadigan joylarda (aeroport, vokzal, ta'lim va tibbiyot muassasalari, bozorlar va boshqalar) havotomchi va havochang yo'llari orqali o'tadigan infeksiyalar, shu jumladan ularning yangi turlari tarqalishini bartaraf etish bo'yicha JSSTning tavsiyalari asosida tegishli sanitariya qoidalarini takomillashtirish.	Amaliy chora-tadbirlar rejasi	2021-yil 1-mart	Xalqaro moliya institutlari mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Vafayev)
8	Aholi o'rtasida tuberkulyoz kasalligini diagnostika qilish uchun mahalliy tuberkulinni ishlab chiqarishni tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar rejasi	2021-2022-yillar	—	Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (Norqulov)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
8	<p>Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tegishli ma'lumotni Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga taqdim etish tartibini belgilagan holda o'ta xavfli infeksiyalar va boshqa biologik chiqindilarning tabiiy o'choqlarini ko'mish va zararsizlantirish joylarini chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastriga kiritish.</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil 1-aprel	-	<p>Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>Norqobilov</i>),</p> <p>Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi</p> <p>(<i>Maksudov</i>),</p> <p>Sog'liqni saqlash vazirligi</p> <p>(<i>Xadjibayev</i>)</p>
8	<p>Mamlakatning biologik xavfsizligi tizimini takomillashtirish yuzasidan va ushbu sohadagi ilg'or xalqaro standartlarni inobatga olgan holda "Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi hamda "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartish va</p>	Qonun loyihasi	2022-yil 15-aprel	-	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi</p> <p>(<i>Xadjibayev</i>),</p> <p>Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>Norqobilov</i>),</p> <p>Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi</p> <p>(<i>Maksudov</i>)</p>

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	qo'shimchalar kiritish.				
8	Dori vositalari, tibbiy buyumlar, jumladan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ilmiy va o'quq maqsadlaridagi muomalasini yengillashtirish masalasini o'rganish va taklif kiritish.	Tahliliy materiallar	2021-yil 1-mart	–	Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Xadjibayev)</i> , Innovatsion rivojlanish vazirligi <i>(Abduraxmonov)</i> , Ichki ishlar vazirligi <i>(Bobojonov)</i>
8	Kasallangan hayvonlarni majburiy olib qo'yish va yo'q qilib tashlash, shuningdek brutsellyoz bilan kasallangan hayvonlar egalariga kompensatsiya to'lovlarini amalga oshirish tartibini belgilash.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 1-avgust	–	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi <i>(Norqobilov)</i> , Moliya vazirligi <i>(Ergashev)</i> , manfaatdor vazirlik va idoralar
9	Daydi va qarovsiz qolgan hayvonlarni (itlar va mushuklarni) vaqtincha saqlash (boqish) joylarini tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2020-2021 yillar	Mahalliy budjetlar mablag'lari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
9	O'ta xavfli infeksiyalar tabiiy o'choqlari va veterinar-sanitar nuqtai nazardan xavfli deb topilgan biologik chiqindilarni	Amaliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-aprel	Ijrochilarning budjet va byudjetdan tashqari mablag'lari doirasida	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi <i>(Norqobilov)</i> , Sog'liqni saqlash vazirligi

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish mudati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	ko'mish va zararsizlantirish joylari bo'yicha, shu jumladan epizootologik vaziyatni monitoring qilish imkonini beruvchi geoaxborot tizimini yaratish.				(Xadjibayev), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi (Sadikov)
9	Yovvoyi itsimonlar (bo'ri, tulki, chiyabo'ri va boshqalar) hisobini yuritib, egerlar, o'rmon va ov xo'jaliklarining ovchilari hamda tajribali havaskor ovchilarni jalb qilgan holda otish orqali yovvoyi itsimonlar o'rtasida quturish virusining aylanib yurishini qisqartirish bo'yicha innovatsion tadbirlarni o'tkazish.	Amaliy chora-tadbirlar	Doimiy asosda	Mahalliy budjetlar mablag'lari	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (Maksudov), Ichki ishlar vazirligi (Bobojonov), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (Norqobilov), O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi (Bakirov)
9	"Qrim-Kongo" gemorragik isitmali qaltiroqning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023-yil 1-fevral	Ijrochilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev), manfaatdor vazirlik va idoralar
9	Keyinchalik xavf darajasini baholagan holda kuydirgi kasalligining tabiiy	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil 1-avgust	Ijrochilar mablag'lari	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (Norqobilov), manfaatdor vazirlik va idoralar

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
	o'choqlarini xatlovdan o'tkazish va ular bo'yicha elektron topografik xaritalarni tuzish.				
9	Kuydirgi kasalligining tabiiy o'choqlarini hisobdan bosqichma-bosqich chiqarish bo'yicha takliflar tayyorlash, shu jumladan yuqori texnologiyali krematoriylardan (insineratorlardan) foydalanishni tartibga soluvchi normativ hujjatlarni tayyorlash, shuningdek, ushbu amaliyotni muayyan hududda tajriba-sinov tariqasida qo'llash.	Amaliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-dekabr	Xalqaro moliya institutlari mablag'lari va o'z mablag'lari	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>Norqobilov</i>), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (<i>Maksudov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-fevraldagi PF-67-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.02.2022-y., 06/22/67/0128-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-son qaroriga
2-ILOVA

Biotexnologiyalar sohasida 2020 — 2024-yillarda bajariladigan ustuvor ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish dasturi

Oldingi tahririga qarang.

T/r	Ilmiy-tadqiqot ishlarining yo'nalishi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	Yuqumli va genetik kasalliklarni aniqlash uchun yangi diagnostik test-tizimlarni yaratish	1.1. Yuqumli va genetik kasalliklarni aniqlashga qaratilgan yangi diagnostik test-	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>),

		tizimlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.		Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
		1.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
		1.3. Yaratilgan test-tizimlarning tajriba namunalarini ishlab chiqish va ilmiy-texnikaviy hujjatlarini shakllantirish.	2022-yil 1-yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>)
		1.4. Yaratilgan test-tizimlarning tajriba namunalarini sinovdan o'tkazish va natijalarni umumlashtirish.	2022-yil 1-iyun	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		1.5. Yaratilgan test-tizimlarni o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazish va ishlab chiqarishga rasmiy ruxsatnoma olish.	2022-yil 1-dekabr	Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>)
		1.6. Diagnostik test-tizimlarni tijoratlashtirish choralarini ko'rish.	2023-yil 1-mart	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
2.	Organizmning genetik xususiyatlariga asoslangan personallashtirilgan tibbiyot texnologiyalarini tatbiq etish	2.1. Ijtimoiy ahamiyatga ega va genetik kasalliklarning prognostik va diagnostik ahamiyatga ega biomarkerlarini aniqlashga qaratilgan	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)

		ilmiy loyihalarga tanlov e'lon qilish.		
		2.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
		2.3. Biomarkerlar tahlil usullarini mo'tadillashtirish, ular asosida yangi diagnostik panelini ishlab chiqish.	2022-yil 1-yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>) Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>) Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
		2.4. Yaratilgan biomarkerlar diagnostik panelining tajriba namunalarini sinovdan o'tkazish va natijalarini umumlashtirish.	2022-yil 15-iyun	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), <i>Innovatsion</i> rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		2.5. Yaratilgan biomarkerlar diagnostik panelini tibbiyot muassasalarida tatbiq etish.	2022-yil 1-dekabr	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
3.	Odam organizmi mikrobiotasini tasniflash va patologik holatlar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish	3.1. Odam organizmi mikrobiotasini tasniflash va patologik holatlar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy loyihalarga tanlov e'lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		3.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		3.3. Ovqat hazm qilish traktida yashaydigan mikroorganizmlarning genetik, proteomik va mikrobiologik tasnifi uchun panel ishlab chiqish va kasalliklarning har xil guruhlarida mikrobiotaning patologik holatlari bilan	2022-yil 1-yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)

		bog'liqligini o'rganish bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazish.		
		3.4. Bemorlarning mikrobiotasini to'g'rilash orqali oshqozon-ichak trakti va immun tizimi holatini baholashning samarali usulini va tanlangan terapevtik tadbirlarning samaradorligini oshirish uchun klinik usullarni ishlab chiqish.	2023-yil 1-iyun	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev), Fanlar akademiyasi (Yuldashev)
		3.5. Ilmiy-texnikaviy hujjatlarni shakllantirish va zarur patentni olish. 3.6. Ilmiy yutuq natijasini tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish. 3.7. Xalqaro biologik ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalash.	2023-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev)
4.	Inson va hayvonlar patologik holatlari va kasalliklarining <i>in silico</i> , <i>in vitro</i> , <i>in vivo</i> imitatsion modellarini ishlab chiqish	4.1. Inson va hayvonlar patologik holatlari va kasalliklarining <i>in silico</i> , <i>in vitro</i> , <i>in vivo</i> imitatsion modelarini ishlab chiqish uchun ilmiy loyihalarga tanlov e'lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		4.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		4.3. Nazariy va eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish, o'rganilayotgan mexanizmlarning matematik modelini shakllantirish.	2022-yil 1-iyul	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev)
		4.4. Butun organizm darajasida ham, hujayra darajasida ham patologik holatlarni kompyuterda modellashtirish uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqish.	2022-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev),

				Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sadikov)
		4.5. Dori vositalarining klinikoldi sinovlari uchun ishlab chiqilgan modellarning samaradorligini eksperimental baholash.	2023-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (Kariyev), Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev)
		4.6. Ilmiy-texnikaviy hujjatlarni shakllantirish va zarur patentni olish. 4.7. Ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotlarni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish 4.8. Ilmiy yutuq natijasini tijoratlashtirish.	2024-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (Kariyev), Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev)
5.	Stomatologiya, onkologiya, onkogematologiya, travmatologiya va jarrohlik uchun o'zak hujayralari va to'qima-muhandislik qurilmalari asosidagi mahsulotlarni, shu jumladan, "o'rin bosuvchi" davolash va tiklovchi davolash uchun davolash texnologiyalarini ishlab chiqish	5.1. Ildiz hujayralari yordamida olingan to'qima-muhandislik konstruksiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy loyihalarga tanlov e'lon qilish	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		5.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		5.3. Biologik mos keluvchi karkaslarda <i>in vitro</i> hujayralarning ishlashini ta'minlash uchun to'qimalardan hosil qilingan konstruksiyalarni yaratish texnologiyasini ishlab chiqish.	2022-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev)
		5.4. Biotibbiy hujayra mahsulotini ishlab chiqarish uchun texnik	2023-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov),

		<p>xususiyatlarni ishlab chiqish.</p> <p>5.5. Klinikoldi va klinik sinovlarni o‘tkazish.</p>		<p>Fanlar akademiyasi (Yuldashev),</p> <p>“O‘zstandart” agentligi (Sattarov),</p> <p>Sog‘liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev)</p>
		<p>5.6. Ilmiy-texnikaviy hujjatlarni shakllantirish va zarur patentni olish.</p> <p>5.7. Yaratilgan biotibbiyot hujayra mahsulotlarini o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish va ishlab chiqarishga ruxsatnoma olish.</p> <p>5.8. Ilmiy yutuq natijasini tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish.</p> <p>5.9. Sog‘liqni saqlash tizimida mahalliy biotibbiyot hujayra mahsulotlarni ishlatishni joriy etish.</p>	2024-yil 31-dekabr	<p>Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov),</p> <p>Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi (Kariyev), Sog‘liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev)</p>
6.	<p>Nanostrukturali tashuvchilardan foydalangan holda uzoq muddatli ta’sirga ega va xavfsizlik darajasi oshirilgan dori-darmonlarni manzilli yetkazib berish muammosini hal qilishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish</p>	<p>6.1. Nanostrukturali tashuvchilardan iborat dori-darmonlarni manzilli yetkazib berishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy loyihalarga tanlov e‘lon qilish.</p> <p>6.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.</p> <p>6.3. Terapevtik samaradorlikni oshirish va qabul qilingan dorilarning nojo‘ya ta’sirini kamaytirish maqsadida standart nanostrukturali tashuvchilarni ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish, farmatsevtika vositalarining tezkor skriningi uchun biologik</p>	2020-yil 15-dekabr	<p>Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)</p>
			2021-yil 1-fevral	<p>Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)</p>
			2022-yil 1-yanvar	<p>Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov),</p> <p>Fanlar akademiyasi (Yuldashev),</p> <p>Sog‘liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev)</p>

		to'siq funksiyalarining immitatsion modelini ishlab chiqish va dori vositalarini ularning biologik nishonlariga maqsadli yo'naltirish uchun tuzilmalarni yaratish bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazish.		
		6.4. Dori vositalarini manzilli yetkazish texnologiyasini ishlab chiqish, ularning samaradorligi va xavfsizligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borish.	2023-yil 1-mart	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>) Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), <i>Fanlar akademiyasi (Yuldashev)</i>
		6.5. Yaratilgan dori vositalarining tajriba namunalarini ishlab chiqish va ilmiy-texnikaviy hujjatlarni shakllantirish hamda zarur patentni olish. 6.6. Ilmiy yutuq natijasini tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish. 6.7. Sog'liqni saqlash tizimida mahalliy dori vositasini ishlatishni joriy etish.	2023-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
7.	Yuqumli kasalliklarga qarshi yangi avlod vaksinalarini yaratish va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish	7.1. Biotexnologik yo'l bilan yangi avlod vaksinalarini yaratishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy loyihalarga tanlov e'lon qilish. 7.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish. 7.3. Rekombinant vektorli vaksinalarni gen muhandisligi yo'li bilan yaratish bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
			2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
			2022-yil 1-yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>),

				Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
		7.4. Yaratilgan vaksinalarning laboratoriya sharoitida tajriba namunalarini ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish, vaksina samaradorligi va xavfsizligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borish.	2023-yil 1-mart	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>) Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), <i>Fanlar akademiyasi</i> (<i>Yuldashev</i>)
		7.5. Yaratilgan vaksinalarning tajriba namunalarini ishlab chiqish va ilmiy-texnikaviy hujjatlarni shakllantirish va zarur patentni olish. 7.6. Ilmiy yutuq natijasini tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish. 7.7. Sog'liqni saqlash tizimida mahalliy dori vositasini ishlatishni joriy etish.	2023-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
8.	Mamlakatimizda fudomiks yo'nalishini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish	8.1. Fudomiks platformasini yaratish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini molekulyar tahlil qilishning yangi usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy loyihalarga tanlov e'lon qilish. 8.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish. 8.3. Odam organizmiga oziq-ovqat mahsulotlari va ovqatlanish tartibining nojo'ya ta'sirini kamaytirish maqsadida biokimyo va metabolik ko'rsatkichlar ekspress skriningi orqali nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
			2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
			2022-yil 1-yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), <i>Fanlar akademiyasi</i> (<i>Yuldashev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)

		<p>8.4. Kimyo, kimyo-texnologiya, biologiya, genetika va tibbiyot sohalaridagi yosh mutaxassislar uchun o'quv-trening tashkillashtirish.</p> <p>8.5. Sog'liqni saqlash muassasalari va oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalarini uchun inson salomatligi va oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.</p>	2023-yil 1-mart	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>),</p> <p>Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>),</p> <p>Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)</p>
9.	Yangi bakterial insektitsidlar, o'simliklarning o'sishini ta'minlovchi stimulyatorlar va bioo'g'itlar ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish	9.1. Mikroorganizmlarning yuqori mahsuldorlikdagi shtammlari asosida yangi ekologik xavfsiz o'simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqarish uchun biotexnologiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy loyihalarga tanlov e'lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		9.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		9.3. O'simliklarni fitofaglardan himoya qilish, o'simliklarning o'sishini ta'minlovchi stimulyatorlar va bioo'g'itlar, yangi xavfsiz ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish uchun biotexnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazish.	2022-yil 1-yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>)
		9.4. Yangi biotexnologik insektitsidlar, biostimulyatorlar va bioo'g'itlarning tajriba namunalarini tabiiy muhitda sinovdan o'tkazish va natijalarni umumlashtirish.	2023-yil 1-iyun	Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)

		<p>9.5. Yangi biotexnologik insektitsidlar, biostimulyatorlar va bioo'g'itlarni ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish. Ilmiy-texnikaviy hujjatlarni shakllantirish va zarur patentni olish.</p> <p>9.6. Ilmiy yutuq natijasini tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish.</p> <p>9.7. Xalqaro biologik ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalash.</p>	2023-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>)
10.	Keng tarqalgan va potensial xavfli fitopatogen organizmlarni va qishloq xo'jaligi chorvasining kasalliklarini aniqlash uchun yangi avlod molekulyar-biologik tashxislash test-tizimlarini ishlab chiqish	10.1. O'simliklar va uy hayvonlarining kasalliklarini aniqlashga qaratilgan yangi diagnostik test-tizimlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		10.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		10.3. Yaratilgan test-tizimlarning tajriba namunalarini ishlab chiqish va ilmiy-texnikaviy hujjatlarni shakllantirish.	2022-yil 1-yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>)
		10.4. Yaratilgan test-tizimlarning tajriba namunalarini sinovdan o'tkazish va natijalarni umumlashtirish.	2022-yil 1-iyun	Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		10.5. Yaratilgan test-tizimlarni o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazish va ishlab chiqarishga ruxsatnoma olish	2022-yil 1-dekabr	Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>)
		10.6. Ilmiy yutuq natijalarini tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish.	2023-yil 1-mart	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>)

		10.7. Yaratilgan test-tizimlarning qishloq xo'jaligida ishlatilishini yo'lga qo'yish.		
11.	Qimmatbaho zotli hayvonlarni genetik pasportlashtirish uchun molekulyar genetik markerlarni aniqlash	11.1. Qimmatbaho zotli hayvonlarni genetik pasportlashtirish uchun molekulyar genetik markerlarini aniqlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
11.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.		2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)	
11.3. DNK markerlarini aniqlash va polimorfizmni baholash, organlarning genlari ekspressiyasining spetsifikasini o'rganish, eng yuqori polimorfizm indeks ko'rsatkichlariga ega bo'lgan ma'lumotlar praymerlarining kutubxonasini yaratish.		2022-yil 1-yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>)	
11.4. Respublika hududida joylashgan qimmatbaho zotlarning genetik pasportizatsiyasini o'tkazish.		2022-yil 1-iyun	Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)	
11.5. Qimmatbaho hayvonlarning pasportizatsiyasiga axborot texnologiyalarini joriy etish, ma'lumotlar bankini yaratish va qo'llab-quvvatlash, xalqaro genetik ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlar bankini integratsiyalash.		2022-yil 1-dekabr	Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)	
11.6. Ilmiy yutuq natijalarini tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish. 11.7. Qishloq xo'jaligida mahalliy test-tizimlar ishlatilishini yo'lga qo'yish.		2023-yil 1-mart	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Xodjayev</i>)	

12.	Hayvonlar yuqumli kasalliklariga qarshi yangi avlod vaksinalarini yaratish va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish	12.1. Biotexnologik yo‘l bilan yangi avlod veterinar vaksinalarini yaratishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy loyihalarga tanlov e‘lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		12.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1- fevralgacha	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		12.3. Veterinar vaksinalarini biotexnologiya yo‘li bilan yaratish bo‘yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish.	2022-yil 1- yanvargacha	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (<i>Norqobilov</i>)
		12.4. Yaratilgan vaksinalarini laboratoriya sharoitida tajriba namunalarini ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish, vaktsina samaradorligi va xavfsizligini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borish.	2023-yil 1-mart	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (<i>Norqobilov</i>), Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
		12.5. Yaratilgan vaksinalarining tajriba namunalarini ishlab chiqib, ilmiy-texnikaviy hujjatlarni shakllantirish va zarur patentni olish. 12.6. Ilmiy yutuq natijasini tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish. 12.7. Sog‘liqni saqlash tizimida mahalliy dorivositasidan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.	2023-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), Sog‘liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
13.	Qishloq xo‘jaligi ekinlarining fitopatogenlarga chidamli	13.1. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining fitopatogenlarga chidamli	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)

	yangi biotexnologik navlarini yaratish	yangi biotexnologik navlarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.		
		13.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		13.3. Nomzod genlarni tanlash, ularni klonlash, genetik vektorlarni ishlab chiqish va agrobakteriyaga transformatsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borish.	2022-yil 1-yanvar	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		13.4. O'simliklarni transformatsiya qilish va somatik embriogenez orqali T ₀ avlod o'simliklarini olish.	2023-yil 1-yanvar	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		13.5. Qimmatli belgiga ega T ₁₋₂ avlod o'simliklarini olish va laboratoriya sinovlaridan o'tkazish. 13.6. Ishlanmaga patent arizasini topshirish.	2023-yil 31-dekabr	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
14.	O'zbekiston uchun ustuvor bo'lgan mevali, manzarali, dorivor, yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turgan o'simliklarni mikroklonal ko'paytirish texnologiyalarini ishlab chiqish	14.1. O'zbekiston uchun ustuvor bo'lgan mevali, manzarali, dorivor, yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turgan o'simliklarni mikroklonal ko'paytirish texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		14.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		14.3. Tanlangan o'simlikning meristematik hujayralarini ajratish va ularni o'stirish uchun ozuqa muhitini ishlab chiqish.	2022-yil 1-yanvar	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)

		14.4. O'simlikni in vitro sharoitida mikroklonal ko'paytirish uchun ozuqa muhitini ishlab chiqish va o'simlikni keng ko'lamda ko'paytirish.	2023-yil 1-yanvar	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		14.5. O'simlik organlarini in vitro sharoitida rivojlantirish uchun ozuqa muhitini ishlab chiqish, to'laqonli o'simliklarni olish, ularni tuproq sharoitiga moslashtirish. Patent arizasini topshirish.	2023-yil 31-dekabr	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
15.	O'simliklarning molekulyar-genetik pasportlarini yaratish	15.1. O'simliklarning molekulyar-genetik pasportlarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		15.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		15.3. O'simliklarni fenotiplash, DNK markerlar panelini yaratish va genotiplash bo'yicha ishlarni amalga oshirish.	2022-yil 1-yanvar	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		15.4. Genotiplash, bioinformatik tahlillar olib borish va molekulyar-genetik pasport yaratish. 15.5. Patentga ariza topshirish.	2023-yil 31-dekabr	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
16.	Zamonaviy post-genomik usullar yordamida o'simliklarning yangi navlarini yaratish	16.1. Zamonaviy post-genomik usullar yordamida o'simliklarning yangi navlarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		16.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		16.3. O'simliklar transkriptomi tadqiqotlaridoirasida	2022-yil 1-yanvar	Fanlar akademiyasi (Yuldashev),

		annotatsiyalangan transkriptlar orqali nomzod genlarni tanlash, ularni klonlash, genetik vektorlarni ishlab chiqish va agrobakteriyaga transformatsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borish.		Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		16.4. O'simliklarni transformatsiya qilish va somatik embriogenez orqali T ₀ avlod o'simliklarini olish.	2023-yil 1-yanvar	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		16.5. Qimmatli belgiga ega T ₁₋₂ avlod o'simliklarini olish va laboratoriya sinovlaridan o'tkazish. 16.6. Ishlanmaga patent arizasini topshirish.	2023-yil 31-dekabr	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
17	Biotibbiy hujayra mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun insonning o'zak hujayralari bankini yaratish	17.1. Insonning o'zak hujayralari bankini yaratish uchun ilmiy loyihalarga tanlov e'lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		17.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		17.3. Infratuzilmani tashkil etish, me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va elektron ma'lumotlar bazasini yaratish (to'plangan namunalarni registri).	2021-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (Kariyev), Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibayev)
		17.4. O'zak hujayralarining maksimal hayotiyligini saqlab turishda izolatsiya va kriokonservatsiya sharoitlarini optimallashtirish. 17.5. Standart operatsion jarayonlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.	2022-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)

		<p>17.6. Ilmiy-texnikaviy hujjatlarni shakllantirish. Ilmiy yutuq natijasini tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish.</p> <p>17.8. Sog'liqni saqlash tizimida mahalliy biotibbiy hujayra mahsulotlarining ishlatilishini yo'lga qo'yish.</p>	2023-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
		17.9. O'zak hujayralari namunalarini doimiy ravishda to'plash va saqlash.	2024-yil 1-yanvardan	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
18	Pasportlangan hayvonlar va inson hujayralari liniyalari to'plamini yaratish	18.1. Pasportlangan hayvonlar va inson hujayralari liniyalari to'plamini yaratish uchun ilmiy loyihalarga tanlov e'lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		18.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		18.3. Hujayra liniyalari kolleksiyalarini yaratish (shu jumladan sotib olish), saqlash va rivojlantirish uchun infratuzilmani tashkil etish.	2021-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (<i>Sadikov</i>)
		18.4. Hujayra liniyalarini pasportlashtirish bo'yicha qoidalarni ishlab chiqish.		
		18.5. Hujayra liniyalari elektron ma'lumotlar bazalarini yaratish.		
18.6. Ilmiy-texnikaviy hujjatlarni shakllantirish va zarur patentni olish.	2022-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>),		
18.7. Ilmiy-tadqiqot natijalarini sinovdan o'tkazish va joriy etish.				

				Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
19	Farmakogenetika, metabolomika va populatsion genetika sohasidagi tadqiqotlarning biologik asoslarini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi aholisining biomateriallari bankini yaratish	19.1. O'zbekiston Respublikasi aholisining biomateriallari bankini yaratish uchun ilmiy loyihalarga tanlov e'lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		19.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		19.3. Infratuzilmani tashkil etish, me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va elektron ma'lumotlar bazasini yaratish (to'plangan namunalarni registri).	2021-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (<i>Sadikov</i>)
		19.4. Ilmiy-texnikaviy hujjatlarni shakllantirish. 19.5. Ilmiy yutuq natijasini tijoratlashtirish va joriy etish.	2022-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
		19.6. O'zbekiston Respublikasi aholisining biologik namunalarni doimiy ravishda to'plash va saqlash.	2023-yil 1-yanvardan	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
		20	Respublika biologik depozitariy bankini tashkil etish	20.1. Respublika biologik depozitariy bankini tashkil etish uchun ilmiy loyihalarga tanlov e'lon qilish.
20.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral			Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
20.3. Biologik material turiga qarab kolleksiyalarni yaratish, saqlash va rivojlantirish uchun infratuzilmani tashkil etish.	2021-yil 31-dekabr			Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
20.4. Biologik namunalarni pasportlash				

		<p>bo'yicha qoidalarni tasdiqlash.</p> <p>20.5. Mavjud biologik kolleksiyalarni xatlovdan o'tkazish, mikrobiologik preparatlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan mikroorganizmlar madaniyati kolleksiyasini yaratish.</p> <p>20.6. Dorivor va noyob o'simliklarning genofondini saqlab qolish va maqsadli biologik faol birikmalar olish maqsadida hujayralar liniyalari to'plamini yaratish.</p>		
		<p>20.7. Biologik namunalarning elektron ma'lumotlar bazalarini yaratish, biologik namunalarni shakllantirish.</p> <p>20.8. Bakterial va virusli patogenlar bankini yaratish.</p> <p>20.9. Genofondni saqlash va nasllarni maqsadli tanlash uchun zotli hayvonlar urug'ining kriobankini yaratish.</p> <p>20.10. Genofondni va maqsadli nasl tanlashni saqlab qolish uchun zotli hayvonlar embrionlarining kriobankini yaratish.</p>	2022-yil 31-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
21	Tuberkulyoz (M.tuberculosis) bakteriyalarining rezistent shtammlariga samarali ta'sir etuvchi kombinirlangan dori vositasining klinik sinovlarini o'tkazish va amaliyotga joriy etish	21.1. Tuberkulyoz (M.tuberculosis) bakteriyalarining rezistent shtammlariga samarali ta'sir etuvchi kombinirlangan dori vositasining klinik sinovlarini o'tkazish va amaliyotga joriy etish uchun innovatsion loyihani ishlab chiqish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)

		21.2. Ilmiy loyihani ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlariga ajratilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
		21.3. Tuberkulyoz (M.tuberculosis) bakteriyalarining rezistent shtammlariga samarali ta'sir etuvchi kombinirlangan dori vositasining tajriba namunalarini ishlab chiqish, uni sertifikatlash va ilmiy-texnikaviy hujjatlarini shakllantirish.	2022-yil 1-yanvar	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>)
		21.4. Tuberkulyozga qarshi kombinirlangan dori vositasi tajriba namunalarini 2 va 3-bosqich klinik sinovlardan o'tkazish va tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat olish uchun natijalarni Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etish.	2022-yil 1-oktabr	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		21.5. Tuberkulyozga qarshi kombinirlangan dori vositasini o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazish va ishlab chiqarishga ruxsatnoma olish.	2022-yil 1-dekabr	Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>)
		21.6. Tuberkulyozga qarshi kombinirlangan dori vositasini o'rnatilgan tartibda tijoratlashtirish choralarini ko'rish.	2023-yil 1-mart	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
22	Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga oid SNP variantlarini genotiplash va ular asosida yangi diagnostikumlarni yaratish	22.1. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga oid SNP variantlarini genotiplash va ular asosida yangi diagnostikumlarni yaratishga qaratilgan	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)

		ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.		
		22.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		22.3. Odam genomida SNP tahlil usullarini mo'tadillashtirish, ular asosida yangi diagnostikumlarni ishlab chiqish.	2022-yil 1-yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
		22.4. Yaratilgan diagnostikumlarning tajriba namunalarini sinovdan o'tkazish va natijalarni umumlashtirish.	2022-yil 1-iyun	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), <i>Innovatsion</i> rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		22.5. Yaratilgan diagnostikumlarni tibbiyot muassasalarida tatbiq etish.	2022-yil 1-dekabr	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
23	OMIKS (genomika, proteomika, metabolomika) texnologiyalari asosida kasalliklarning shaxsiy skriningi, erta tashxis qo'yish va davolash samaradorligini kuzatish uchun yangi biomarkerlarni izlash va ishlab chiqish	23.1. OMIKS texnologiyalari asosida kasalliklarning shaxsiy skriningi, erta tashxis qo'yish va davolash samaradorligini kuzatish uchun yangi biomarkerlarni izlash va ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		23.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		23.3. Bemorlar registri va biomateriallar bankini shakllantirish, onkologik, autoimmun va virusli kasalliklarning prognostik va diagnostik ahamiyatga ega biomarkerlarini aniqlash.	2022-yil 1-yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
		23.4. Doimiy tahlil usullarini	2022-yil 1-iyun	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>),

		mo'tadillashtirish, ular asosida yangi diagnostika va davolash vositalarini ishlab chiqish.		<i>Innovatsion</i> rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		23.5. Olingan ilmiy mahsulotlarni tijoratlashtirish	2022-yil 1-dekabr	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), <i>Innovatsion</i> rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
24	GWAS usuli orqali inson organizmining patologik holatlarini o'rganish va olingan natijalarga ko'ra yangi tashxis qo'yish, genotiplash va yangi diagnostik test-tizimlarni yaratish	24.1. GWAS usuli orqali inson organizmining patologik holatlarini o'rganish va olingan natijalarga ko'ra yangi tashxis qo'yish, genotiplash va yangi diagnostik test-tizimlarni yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.	2020-yil 15-dekabr	<i>Innovatsion</i> rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		24.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	<i>Innovatsion</i> rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		24.3. GWAS usuli orqali inson organizmining patologik holatlarini o'rganish, yangi genetik markerlarni aniqlash, ular asosida yangi test-tizimlarni ishlab chiqish.	2023-yil 1-yanvar	<i>Innovatsion</i> rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>)
		24.4. Genomik va klinik ma'lumotlarni tahlil qilish uchun bioinformatsiya usullarini tatbiq qilish va xalqaro biologik ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalash.	2022-yil 1-iyun	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), <i>Innovatsion</i> rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		24.5. Yaratilgan diagnostikumlarni tibbiyot muassasalarida tatbiq etish.	2023-yil 1-dekabr	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), <i>Innovatsion</i> rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
25	SNP mikrochip texnologiyasiga asoslangan GWAS usulini qo'llab	25.1. G'o'za genomidagi keng a'sotsiatsiyalarni izlab topish, foydali genlar va	2021-yil 1-yanvar	<i>Innovatsion</i> rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)

	molekulyar seleksiya dasturlariga joriy etish uchun foydali nomzod genlar va potensial donorlar panelini yaratish	potensial donorlar panelini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.		
		25.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		25.3. G'o'za genotiplarini SNP markerlari bilan genotiplash va turli muhitlarda fenotiplash bo'yicha ishlarni amalga oshirish.	2022-yil 1-yanvar	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		25.4. Molekulyar seleksiya dasturlari uchun nomzod genlarni aniqlash bo'yicha GWAS usulini amalga oshirish.	2022-yil 31-dekabr	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		25.5. Bioinformatik va statistik tahlillar olib borish hamda genom seleksiyasi uchun foydali nomzod genlar va potensial donorlar panelini yaratish.	2023-yil 31-dekabr	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
26	“Gene pyramiding” texnologiyasi asosida g'o'zaning qurg'oqchilikka va sho'rga chidamli, tola sifati yuqori va hosildor navini yaratish	26.1. “Gene pyramiding” texnologiyasi asosida g'o'zaning tola sifati va hosildorligi yuqori, qurg'oqchilikka va sho'rga chidamli yangi navini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.	2021-yil 1 yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		26.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		26.3. Tadqiqot namunalarining qurg'oqchilik va sho'rga chidamliligini molekulyar va fenotipik tasdiqlash.	2022-yil 1-yanvar	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		26.4. G'o'zaning qurg'oqchilikka va sho'rga chidamli, tola sifati va hosildorligi yuqori yangi navini	2022-yil 31-dekabr	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>),

		yaratish bo'yicha ishlarni amalga oshirish.		Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		26.5. G'o'zaning qurg'oqchilikka va sho'rga chidamlilik, tola sifati va hosildorlikka aloqador genlarini bir genotipga jamlash asosida takomillashgan yangi navini yaratish.	2023-yil 31-dekabr	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
27	O'simliklar uchun metabolom muhandisligi usullarini ishlab chiqish.	27.1. O'simliklar uchun metabolomik muhandisligi usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.	2021-yil 1-yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		27.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		27.3. Dorivor o'simliklarning ustuvor turlarida biologik birikmalar sintezida qatnashadigan asosiy metabolik yo'llarni va genlarni aniqlash.	2022-yil 1-iyul	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		27.4. Nomzod genlarni tanlash, ularni klonlash, genetik vektorlarni ishlab chiqish va transformatsiya qilishga tayyorlash bo'yicha tadqiqotlarni olib borish.	2023-yil 31-dekabr	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		27.5. Dori vositalarini chiqarishga kerakli faol moddalar sintezi uchun yaroqli organizmlarni hamda dorivor o'simliklar hujayralarini transformatsiya qilish.	2024-yil 1-iyul	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
		27.6. Olingan transformantlarni yetishtirish usullarni ishlab chiqish. 27.7. Ishlanmaga patent arizasini topshirish.	2024-yil 31-dekabr	Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)
28		Gen muhandisligi yordamida yaratilgan	28.1. Gen muhandisligi yordamida yaratilgan ekin	2021-yil 1-yanvar

	ekin navlarining bioxavfsizligini baholash	navlarining bioxavfsizligini baholash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.		
		28.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		28.3. Genetik o'zgartirilgan navlar va liniyalarning muhim ekvivalentligini (genetik profili, asosiy makronutrientlar (oqsillar, yog'lar va uglevodlar) va ba'zi fermentlarning faolligini) baholash.	2022-yil 1-iyul	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		28.4. Genetik o'zgartirilgan navlar va liniyalarning toksikligi va allergenligini tadqiq qilish.	2023-yil 31-dekabr	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		28.5. Genetik o'zgartirilgan navlar va liniyalarning ekologik xavfsizligini baholash. 28.6. Gen muhandisligi yordamida yaratilgan ekin navlarining bioxavfsizligi haqida xulosa tayyorlash.	2024-yil 31-dekabr	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
29	Zamonaviy gen muhandisligi texnologiyalari yordamida (CRISPR/Cas, RNK-interferensiya) o'simliklarning qimmatli xo'jalik belgilari yaxshilangan navlarini yaratish	29.1. Qishloq xo'jalik ekinlarning fitopatogenlarga chidamli yangi biotexnologik navlarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun tanlov e'lon qilish.	2021-yil 1-yanvar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		29.2. Ilmiy loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish.	2021-yil 1-fevral	Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
		29.3. Nomzod genlarni tanlash, ularni klonlash, genetik vektorlarni ishlab chiqish va agrobakteriyaga transformatsiya qilish	2022-yil 1-iyun	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)

	bo'yicha tadqiqotlarni olib borish.		
	29.4. O'simliklarni transformatsiya qilish va somatik embriogenez orqali T ₀ avlod transgen o'simliklarini olish.	2023-yil 31-may	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)
	29.5. Qimmatli belgiga ega T ₁₋₂ avlod transgen o'simliklarini olish va laboratoriya sinovlaridan o'tkazish. 29.6. Ishlanmaga patent arizasini topshirish.	2024-yil 31-may	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PF-89-son Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-son qaroriga
3-ILOVA

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biologik xavfsizlik kengashining TARKIBI

Oldingi tahrirga qarang.

- A.N. Aripov — O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, *Kengash raisi*
L.N. — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari, *Kengash raisining o'rinbosari*
Tuychiyev — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibining o'rinbosari
B.A. — sog'liqni saqlash vaziri
Shayakubov —
A.M. — innovatsion rivojlanish vaziri
Xadjibayev —
I.Y. — qishloq xo'jaligi vaziri
Abduraxmonov — moliya vaziri
J.A. Xodjayev — mudofaa vaziri
T.A. Ishmetov — oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri
B.N. Kurbanov — Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi
I.U. Madjidov — Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi
A.I. Maksudov —
B.T. — Norqobilov
B.S. Yuldashev — Fanlar akademiyasi prezidenti
S.X. Kariyev — Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi direktori
A.X. — favqulodda vaziyatlar vazirining birinchi o'rinbosari
Qo'ldoshev —
Sh.U. Sobirov — ichki ishlar vazirining birinchi o'rinbosari
I.T. Ne'matov — tashqi ishlar vaziri o'rinbosari
R.N. — Davlat xavfsizlik xizmati raisining o'rinbosari
Abdullaxanov —
I.K. Ergashev — O'simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktori

M.X. — Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktorining birinchi
Raxmankulov o‘rinbosari
S.A. — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi
Alimuxamedov apparatining bosh konsultanti
B.K. — Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati
Yusupaliyev boshlig‘i, *Kengash kotibi*

Izoh: Kengash a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

(3-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-fevraldagi PF-67-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.02.2022-y., 06/22/67/0128-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-son qaroriga

4-ILOVA

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biologik xavfsizlik kengashi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biologik xavfsizlik kengashi (keyingi o‘rinlarda — Kengash) faoliyatini tashkil etish tartibi, vazifalari va huquqlarini belgilaydi.

2. Kengash mamlakatning biologik xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqishda davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruvi organlari, ilmiy, nodavlat notijorat va boshqa tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini ta‘minlash maqsadida maslahat organi sifatida tashkil etiladi.

3. Kengash o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, ushbu Nizom va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

4. Kengash o‘z faoliyatini davlat organlari va tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Kengashning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari ijrosi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar uchun bajarilishi majburiydir.

2-bob. Kengashning asosiy vazifalari, huquqlari va javobgarligi

6. Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari hisoblanadi: mamlakatning biologik xavfsizligini ta‘minlash sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini tashkil qilish;

xavfli biologik omillar ta‘siridan aholini himoya qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xavf-xatarlarning oldini olish, biologik xavflarni monitoring qilish tizimini yaratish va rivojlantirishga

qaratilgan tavsiyalar va takliflarni tayyorlash, ekspert baholash hamda ko'rib chiqish;

mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalda ro'yobga chiqarish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

vazirlik, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha maqsadli vazifalarni bajarishdagi o'zaro hamkorligini ta'minlash;

Bakteriologik (biologik) va toksik qurol-yarog'larni ishlab chiqish, tayyorlash va to'plashni man etish hamda ularni tugatish to'g'risidagi Konvensiya qoidalarining amalga oshirilishini ta'minlash;

muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hamda mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish davomida yuzaga keladigan dolzarb masalalar hamda muammolarni, shu jumladan omma o'rtasida muhokama qilish.

7. Kengashga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda ko'rib chiqiladigan masalalar doirasiga quyidagilar kiradi:

a) karantin, o'ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklarning yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olish hamda ularga qarshi kurashish, shu jumladan:

aholi o'rtasida o'lim holatlarining asosiy sabablari hisoblangan yuqumli kasalliklar, shuningdek, hayvonlar va o'simliklarning qishloq xo'jaligi va atrof-muhitga zarar keltiruvchi infeksiyalari tarqalish darajasini pasaytirish;

yangi, qaytalanadigan yuqumli kasalliklarning vujudga kelishi va tarqalishi, shuningdek, kam uchraydigan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududida oldin uchramagan yuqumli kasalliklar kirib kelishining oldini olish;

tibbiy yordam ko'rsatish va veterinariya faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq yuqumli kasalliklarning oldini olish;

mikroorganizmlar shtammlarining dori vositalari, kimyo va (yoki) biologik vositalarga turg'unligini (rezistentligini) bartaraf etish;

inson va qishloq xo'jaligi hayvonlarining tabiiy mikrobiotasi, shuningdek, hayvonlar va o'simliklarning kam uchraydigan va yo'qolib borayotgan turlarini saqlab qolish va tiklash;

inson va hayvonlar organizmlarining immun tanqisligi holatlari, shuningdek, ular bilan bog'liq yuqumli kasalliklarning tarqalish darajasini pasaytirish;

inson va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklarning profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan amaldagi hayvonot qabristonlarini qayta barpo etish va yangilarini qurish;

b) atrof-muhitni salbiy biologik ta'sirdan muhofaza qilish;

v) patogen mikroorganizmlar va viruslar kolleksiyalarini shakllantirish, saqlash va rivojlantirish;

g) patogen biologik agentlarni (patogenlarni), shu jumladan yuzaga kelishi xavfi yuqori bo'lgan biologik obyektlarda qo'llash bilan amalga oshiriladigan avariya va (yoki) diversiyalarning oldini olish;

d) xavfli texnogen faoliyatni, shu jumladan genetik materiallar va sintetika biologiyasi texnologiyalaridan nazoratsiz foydalanish, shuningdek, xavfli biologik moddalardan foydalanish bilan bog'liq terrorchilik aktlarini tayyorlash va sodir etishni ogohlantirish va ularning oldini olish;

e) biologik xavflarni monitoring qilish tizimini yaratish va rivojlantirish, shu jumladan biologik xavflarni monitoring qilish bo'yicha mustaqil tizimning faoliyatini tashkil etish;

j) biologik xavflarni monitoring qilish natijasida aniqlangan boshqa biologik xavf-xatarlarni zararsizlantirish;

z) qonunchilikning o'zaro bog'liq sohalarida nazarda tutilgan, shu jumladan quyidagilarga qaratilgan chora-tadbirlar:

fuqarolarning sog'lig'ini saqlash, aholining sanitar-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash, ushbu sohalaridagi qonun hujjatlariga muvofiq biotibbiyot hujayra mahsulotlarini muomalaga kiritish;

hayvonlarni kasalliklardan himoya qilish, veterinar-sanitar jihatdan xavfsiz chorvachilik mahsulotlarining ishlab chiqarilishini ta'minlash;

qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga muvofiq o'simliklarni karantin va himoya qilish;

texnik reglamentlarga muvofiq mahsulotlarning xavfsizligini ta'minlash;

atrof-muhitni salbiy ta'sirlardan muhofaza qilish, ushbu sohada qonun hujjatlariga muvofiq biologik xilma-xillikni saqlash;

gen-muhandislik faoliyatini amalga oshirish, genetik modifikatsiyalangan organizmlar, shuningdek, biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatishga qodir sintetik biologik agentlarni chegaradan olib o'tish, tranzit qilish, ishlov berish va ulardan foydalanish;

i) Bakteriologik (biologik) va toksik qurol-yarog'larni ishlab chiqarish, tayyorlash va to'plashni man etish hamda ularni tugatish to'g'risidagi Konvensiya qoidalarini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

8. Kengash o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

ushbu Nizomning **7-bandida** nazarda tutilgan masalalar bo'yicha davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlaridan Kengashning vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha zarur materiallar va hujjatlarni belgilangan tartibda so'rab olish;

o'z majlislariga davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, ilmiy muassasalar, oliy ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlarning vakillarini taklif qilish;

mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritish;

axborot-tahliliy va ekspert ishlarini o'tkazish uchun ilmiy, oliy ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlarni, shuningdek, ilmiy va ilmiy-texnikaviy siyosat masalalari bo'yicha takliflarni o'rganish va ishlab chiqish uchun olimlar va mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb qilish;

Kengash tomonidan qabul qilingan qarorlarning izchil bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

9. Kengash o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi uchun javob beradi.

3-bob. Kengash tarkibi

10. Kengash tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

11. Kengash rais, uning o'rinbosarlari, kotib va Kengash a'zolaridan iborat bo'ladi. Kengash a'zolari uning ishida jamoatchilik asosida qatnashadi.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Kengashning raisi hisoblanadi.

4-bob. Kengash ishini tashkil etish

12. Kengash majlislarini tayyorlash va o'tkazish Kengash kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

13. Kengash o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq o'z a'zolari, shuningdek, jalb qilingan davlat boshqaruvi organlari vakillari, mutaxassislar va ekspertlar tarkibidan iborat ishchi guruhlar va boshqa ishchi organlar tuzishi mumkin.

14. Kengash majlislari zaruratga ko'ra, lekin har yarim yilda kamida bir marta o'tkaziladi.

15. Kengash majlisini rais, u bo'lmagan taqdirda, Kengash raisining o'rinbosari olib boradi.

16. Kengash a'zolari majlislarda shaxsan ishtirok etadi. Kengash a'zosining majlisda ishtirok etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, u ko'rib chiqiladigan masalalar yuzasidan yozma shakldagi fikrini oldindan taqdim etish huquqiga ega.

17. Kengash majlisi Kengash a'zolarining kamida yarmi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

18. Kengashning navbatdagi majlisi kun tartibi va materiallari Kengash a'zolariga yig'ilishdan kamida uch kalendar kun oldin bo'lajak majlis to'g'risidagi xabarnoma bilan birga yuboriladi.

19. Kengashning qarorlari ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha kelib tushgan yozma shakldagi fikrlarni hisobga olgan holda majlisda qatnashgan Kengash a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda raisning ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

20. Kengash qarorlari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va Kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi. Bayonnomani imzolash paytida Kengash a'zolari o'zlarining alohida fikrini bildirishga haqlidirlar.

Kengash bayonnomasining asl nusxasi va uning materiallari Vazirlar Mahkamasida saqlanadi.

5-bob. Yakunlovchi qoida

21. Kengashni qayta tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-son qaroriga

5-ILOVA

Toshkent vakcina va zardoblar ilmiy-tadqiqot institutining faoliyatini takomillashtirish

DASTURI

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
I. Ilmiy tadqiqotlarning samaradorligi va natijadorligini oshirish					
1.	Toshkent vakcina va zardoblar ilmiy-tadqiqot institutining keyingi b'rinlarda — institut) ilmiy-tadqiqot faoliyatini 2030-yilgacha rivojlantirish dasturini ishlab chiqish hamda Fan va texnologiyalar bo'yicha	Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, Institutning rolini kuchaytirish, vaksinalar, zardoblar va boshqa immunobiologik preparatlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni inobatga olgan holda immunologiya fani, shu jumladan vakcina-zardob ishini rivojlantirishning istiqbolli	2021-yil 1-mart	—	Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar

	Respublika kengashiga tasdiqlash uchun kiritish.	yoʻnalishlarini belgilash.			
2.	Xorijiy ilmiy markazlarda faoliyat koʻrsatayotgan vatandoshlar va yetakchi xorijiy olimlar orasidan profilaktika tibbiyoti va unga yaqin yoʻnalishlarning olimlarini institutdagi tadqiqotlarga jalb qilish.	Xorijiy ilmiy markazlarda faoliyat koʻrsatayotgan vatandoshlar toʻgʻrisida maʼlumotlarni shakllantirish; vatandosh olimlar va xorijiy mutaxassislar bilan tegishli muhokamalarni oʻtkazish; yetakchi immunolog, virusolog, parazitolog, mikrobiolog, biotexnolog, epidemiolog va farmatsevtlar ishtirokidagi ilmiy-tadqiqot loyihalarini tayyorlash; loyihalarni Sogʻliqni saqlash vazirligi va “El-yurt umidi” jamgʻarmasi bilan muvofiqlashtirish; loyihalarni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish.	2021-yildan boshlab	“El-yurt umidi” jamgʻarmasi mablagʻlari	Farmatsevtika tarmogʻini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), “El-yurt umidi” jamgʻarmasi (<i>Bekmuradov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
II. Institut faoliyatini takomillashtirish, malakali kadrlarni tayyorlash va xalqaro aloqalarni mustahkamlash					
3.	Institut faoliyatiga oid hujjatlarni qayta koʻrib chiqish.	Institutning yangi tahrirdagi ustavini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2021-yil 1-yanvar	–	Farmatsevtika tarmogʻini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>)
4.	Import qilinadigan immunobiologik mahsulotlarning sifatini nazorat qilish uchun institut negizida Mikroorganizmlarning vaksina va etalon shtammlari	Patogen mikroorganizmlar markazini tashkil etish boʻyicha takliflarni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. Bunda I — IV guruhlardagi mikroorganizmlarning vaksina va etalon	2021-yil 1-mart	Farmatsevtika tarmogʻini qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari	Farmatsevtika tarmogʻini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>)

	markazini tashkil etish.	shtammlarini Mikroorganizmlar milliy kolleksiyasida saqlash tizimini yaratish nazarda tutiladi.			
5.	Institut ilmiy faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish.	Institutning Ilmiy kengashi tarkibini shakllantirish va tasdiqlash.	2021-yil 1-fevral	–	Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>)
6.	Institut faoliyati natijadorligini baholash tizimini joriy etish.	Institut laboratoriyalari va ilmiy xodimlarining faoliyatini har yili baholash tartibini, shu jumladan aniq indikatorlarni (KPI) ishlab chiqish va tasdiqlash.	2021-yil 1-may	–	Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>)
7.	Institutning ilmiy ishlari natijalarini xatlovdan o'tkazish, ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlash.	Ilmiy ishlarning natijalarini xatlovdan o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi patentlari bilan himoyalangan intellektual mulk obyektlarini baholash, shuningdek dolzarbligidan va iqtisodiyotning real sektoriga joriy etish imkoniyatidan kelib chiqqan holda istiqbolli ilmiy ishlanmalar va chora-tadbirlar ro'yxatini tayyorlash.	2021-yil 1-mart	–	Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>)
8.	Institut ilmiy ishlanmalarining yangilanib boriladigan elektron bazasini yaratish.	Institut ilmiy ishlanmalarining elektron bazasini yaratish va doimiy asosda yangilab borish.	2021-yil 1-noyabr	–	Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>)
9.	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish samaradorligini oshirish.	Innovatsion g'oyalar va ishlanmalarni ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish	2021-yil 1-avgust	–	Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>)

		xizmatini tashkil etish.			
10.	Yosh olimlarni institutga jalb qilish choralarini ko'rish.	Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini taqsimlash tizimini tiklash bo'yicha taklif kiritish; davlat granti loyihalarining shtat jadvallariga 30 foizdan kam bo'lmagan holda yosh mutaxassislar kiritilishini ta'minlash; yosh magistrlar tomonidan stajor-tadqiqotchi lavozimidan maqsadli foydalanilishini ta'minlash.	2021-yil 1-aprel Doimiy asosda	–	Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>)
11.	Institut faoliyati yo'nalishlari bo'yicha doktoranturaga kvotalar ajratish.	Doktorantura mutaxassisliklarini ochish bo'yicha takliflar tayyorlash, dissertatsiya ishlarini bajarish uchun uzoq muddatli ilmiy xizmat safarlarini tashkillashtirish.	2021-yil 1-iyun	Ushbu maqsadlarga ko'zda tutilgan Davlat budjeti mablag'lari	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>), Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>)
12.	Institutda biotexnologiya, virusologiya va mikrobiologiya, dorilar texnologiyasi yo'nalishlariga xoslashtirilgan kengash tashkil etish.	Soxaning yetuk mutaxassis olimlarini kengash tarkibiga jalb etish.	2021-yil 1-iyun	–	Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), tegishli ilmiy-tadqiqot muassasalari
13.	Magistrlarni institutning ilmiy-tadqiqot loyihalariga jalb qilish.	Tegishli oliy ta'lim muassasalari bilan magistrlik dissertatsiyalarini Institutda bajarish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va Sog'liqni saqlash	2021-yil 1-may	–	Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>Madjidov</i>)

		vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga kelishish uchun kiritish.			
III. Institutning raqobatbardoshligini ta'minlash					
14.	Xorijiy ilmiy muassasalar va markazlar bilan qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishini kengaytirish.	<p>Institutning asosiy ilmiy yo'nalishlari bo'yicha qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga oid rejalar ishlab chiqish va kelishish;</p> <p>qiziqish bildirgan tegishli yetakchi xorijiy ilmiy markazlar, jamg'armalar va tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish; konferensiyalar, simpoziumlar va xorijda o'tkaziladigan boshqa tadbirlarda ilmiy darajaga ega izlanuvchilarning ishtirokini yo'lga qo'yish.</p>	<p>2021-yil</p> <p>1-yanvar</p> <p>Doimiy asosda</p> <p>Doimiy asosda</p>	<p>Xalqaro moliya institutlari, xorijiy va donor tashkilotlarning grantlari va mablag'lari</p>	<p>Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>),</p> <p>Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>),</p> <p>TIV (<i>Kamilov</i>), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (<i>Vafayev</i>)</p>
15.	Institut ilmiy tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari bo'yicha xalqaro va respublika darajasida ilmiy konferensiyalar tashkil etish va o'tkazish.	<p>Respublikada o'tkaziladigan ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga kiritish uchun vaksina-zardob ishi va farmatsevtika texnologiyalari bo'yicha xalqaro tadbirlarni o'tkazish kalendar rejasini tayyorlash va kelishish hamda ularni Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan muvofiqlashtirish.</p>	Doimiy asosda	<p>Institutning budjetdan tashqari mablag'lari,</p> <p>homiylar mablag'lari</p>	<p>Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>),</p> <p>Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>Abduraxmonov</i>)</p>
IV. Institutning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash					
16.	Ilmiy-laboratoriya uskunalari, laboratoriya jihozlari, texnikalarning ehtiyoj qismlari, o'qituvchi	<p>Institut uchun zarur bo'lgan, GLP talablariga mos keluvchi zamonaviy ilmiy-laboratoriya uskunalarini xarid qilish bo'yicha asoslantirilgan</p>	<p>2021-yil</p> <p>1-mart</p>	<p>Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi</p> <p>mablag'lari</p>	<p>Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (<i>Kariyev</i>)</p>

qismlar, reaktivlar, reagentlar, ozuqa muhitlari, laboratoriya dirlari, laboratoriya hayvonlari va ular uchun ozuqalar xarid qilish.	takliflarni ishlab chiqish; uskunalar ro'yxatini Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan muvofiqlashtirish va kelishish; ro'yxatga muvofiq ilmiy-laboratoriya uskunalari, ehtiyot qismlar va reagentlarni xarid qilish.	Doimiy asosda		
		Doimiy asosda		

(5-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi PQ-411-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.10.2022-y., 07/22/411/0961-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-son qaroriga

6-ILOVA

Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy-tadqiqot institutining TUZILMASI

		Ilmiy kotib		Direktor		Ilmiy kengash	
		Ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari				Umumiy masalalar bo'yicha direktor o'rinbosari	
Umumiy epidemiologiya laboratoriyasi	2	"BSL-3" laboratoriyasi	3	GMP bo'yicha bakterial va virus preparatlarini ishlab chiqarish bo'yicha IChB (*)		Xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar ombor xo'jaligi (*)	Kadrlar bo'yicha inspektor
Mikrobiologiya laboratoriyasi		Biopreparatlar laboratoriyasi		Bakterial preparatlar ishlab		Bosh energetik (*)	Buxgalteriya
							2

2		2	chiqarish bo'limi (*)			
Immunologiya laboratoriyasi		Ozuqa muhiti laboratoriyasi	Virus preparatlarini ishlab chiqarish bo'limi (*)	Sotish va ta'minot bo'limi (*)	Yuriskonsult	1
2		2				
Virusologiya laboratoriyasi		Yuqori texnologiyalar laboratoriyasi	Biologik nazorat bo'limi (*)	Patent yurituvchi (*)		
2		2				
Biotexnologiya laboratoriyasi		Zaharga qarshi zardoblar laboratoriyasi	Marketing bo'limi (*)	Maxsus qism (*)		
2		2				
Bakteriologiya laboratoriyasi		Zardoblarni tozalash va konsentratsiyasini oshirish laboratoriyasi		Arxiv (*)		
4		2				
Parazitologiya va allergologiya laboratoriyasi		Ishlab chiqarishga mo'ljallangan mikroorganizmlar milliy kolleksiyasi (**)				
2		2				
Vivariy		Serpentariy				
1		1				

Davlat budjeti mablag'lari hisobidan saqlanadigan umumiy shtatlar soni — 41 ta birlik, shu jumladan boshqaruv xodimlari — 7 nafar, ilmiy xodimlar — 34 nafar.

Bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlariga ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb etiladi.

* Ushbu shtat birliklari soni Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi tomonidan belgilanadi hamda Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga yoki autsorsing hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llash orqali moliyalashtiriladi.

** Ishlab chiqarishga mo'ljallangan mikroorganizmlar milliy kolleksiyasida faqat ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladigan mikroorganizmlar saqlanadi.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.11.2020-y.,
06/20/4899/1558-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.12.2021-y.,
06/21/34/1164-son, 12.02.2022-y., 06/22/67/0128-son, 24.02.2022-y.,
06/22/78/0163-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y.,
06/22/89/0227-son, 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son, 27.10.2022-y.,
07/22/411/0961-son)